**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**XALQ TA’LIMI**
**VAZIRLIGI**
**A.QODIRIY NOMIDAGI**
**JIZZAX DAVLAT**
**PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ**
**ХАЛҚ ТАЪЛИМИ**
**ВАЗИРЛИГИ**
**А.ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ**
**ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ**
**ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ**

**BOShLANG`ICH TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI**

«Himoya qilishga ruxsat beraman»
Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi fakulteti dekani
__________ dots. Rabbimov M.T.
«___» _____________ 2014 y.

5141600 – boshlang’ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo’nalishi bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun

# “BOSHLANG’ICH TA'LIM VA TARBIYASIDA O’QUVCHILARDA FILOLOGIK TAHLIL MALAKASINI SHAKLLANTIRISH ”

**mavzusida bajarilgan**

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Bajaruvchi**: Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi fakulteti Mamatqulova Gulnigor

**Ilmiy rahbar**: **prof. Jumanazarov U.A**

Ishni himoyaga tavsiya etaman: _______ ___________________________
(imzo) (ilmiy rahbar ismi va sharifi)

BMI «BTN va A » kafedrasi yig’ilishining qarori bilan (Qaror №,_____ 2014 y.) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _________________ _______
(ismi va sharifi) (imzo)

**JIZZAX– 2014**

**REJA:**

**KIRISH................................................................................................................**

**I BOB. BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARIDA ADABIY TAHLIL MALAKASINI SHAKLLANTIRISH VA TA'LIM MAZMUNINI UYG`UNLASHTIRISH IMKONIYATLARI ...................................................**

1.1. Boshlang`ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash jarayoni va uning pedagogik-psixologik xususiyatlari…………………………………………….......................

1.2. Boshlang`ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish va ular ustida ishlash jarayonining asosiy bosqichlari………………………………………………….

1.3.Ta'limning yangi modellarida ta'lim mazmunini uyg’unlashtirish imkoniyatlari mazmunini aniklash strategiyasi…………………………………………………

**II BOB. BOSHLANG`ICH SINFLARDA UYG`UNNING ADABIY-BADIIY ASARLARINI TAHLIL QILISHNING FILOLOGIK-PEDAGOGIK TALQINI.........................................................................................................**

2.1 Boshlang`ich sinflarning “O`qish” darslarida Uyg`un asarlarini o`rgatish...........................................................................................................

2.2. Uyg`un asarlarini sinfdan tashqari mashg`ulotlarda o`rganish............................

**XULOSALAR..........................................................................................**

**ADABIYOTLAR RO`YXATI .......................................................................**

# KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O`zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish, shuningdek, mustaqil fikr egasi, erkin va ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ta'limiy islohotlarning ikkinchi - sifat bosqichi kechayotgan mavjud sharoitda O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risida»gi qonuni1 hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»2da belgilangan vazifalarning to`laqonli amalga oshirishga erishish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariga tayangan holda dastur mazmuniga tegishli o`zgartirishlarni kiritish yo`lida amaliy harakatlar olib borilmoqda.

O`zbek olimlaridan N.Sayidahmedov, J.Yo`ldoshov, M.Ochilov, E.g`oziev, B.L.Farberman, N.Azizxo`jaeva, O`.Tolipov, U.Nishonaliev va Ch.Mirzaev, R.Ergashev,B.Raximov, P.Holmatov kabilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mamlakatimiz ta'lim tizimiga mos jihatlarini ishlab chiqdilar.

Ammo qayd etilgan ishlarda aynan boshlang`ich sinflar o`quvchilarining yosh xususiyatiga xos bo`lgan ta'limni maqsadli zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish masalasi alohida muammo sifatida o`rganilmagan. Chunki ta'lim jarayoni ko`p bosqichli yaxlit tizimga ega bo`lib, uning har bir bosqichi ta'lim oluvchilarning yosh hamda o`ziga xos xususiyati, ta'lim-tarbiya jarayonidagi intellektual qobiliyatiga hamda ta'limni izchil, tizimli va uzviy amalga oshirilishiga bog`liqdir. Boshlang`ich siflarda o`quv jarayonini texnologik yondashuvlar asosida tashkil etishda o`quvchi bo`lajak mutaxassis sifatida ta'lim jarayonining bosh ob'ekti va sub'ekt ekanligini ko`plab olimlar e'tirof etgan bo`lsada alohida tadqiqot sifatida o`rganilmagan. Uning ehtiyoji, qobiliyati, qiziqish va imkoniyatlari, tayyorgarlik darajasi va ta'lim so`ngida erishiladigan natijasi o`z takomiliga ega emas. Bu esabiz tanlagan MBI mavzusining dolzarbligini ko`rsatadi.

Yangi asr o`qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo`yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim te bo`yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg`or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo`lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o`zining **«Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari»** asarida O`zbekistonda qabul qilingan o`ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali amalga oshirish lozimligini ta'kidlagan[1]. Buni ta'minlash bo`lajak mutaxassislarni va ilmiy-pedagogik xodimlarni zamonaviy

---

[1] I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. - Тошкент: O’zbekiston,2009. – б.7.

talablar asosida tayyorlashni taqozo etadi. Bu muhim vazifani hal qilishning samarali yo`llaridan biri mutaxassislarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug`ullana oladigan qilib tayyorlashdan iboratdir. Ushbu muammo echimini ham muhtaram Prezidentimiz o`zining **«Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch»** asarida "...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo`lgan, ongli, yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo`lishi lozim," deb ta'kidladi[2].

**BMIning maqsadi:** boshlang`ich sinf o`quvchilarida adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida didaktik imkoniyatlarini aniqlash.

**BMIning ob'ekti:** boshlang`ich siflarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etish jarayoni.

**BMIning predmeti:** boshlang`ich siflarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etishning boshlang`ich mazmuni.

**BMIning vazifalari:**

1. Boshlang`ich siflarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etish jarayoning mavjud holatini o`rganish.

2. Boshlang`ich siflarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etish jarayoni asosida tashkil etishga xizmat qiluvchi maqbul shakl, metod va vositalarni belgilash.

3. Boshlang`ich siflarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etish jarayoni asosida tashkil etishga yo`naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularning samaradorligini aniqlash.

4. Boshlang`ich sinflarda uyg`unning adabiy-badiiy asarlarini tahlil qilishning filologik-pedagogik talqini.

**BMI metodlari:** BMI muammosiga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar mazmunini o`rganish, nazariy jihatdan tahlil etish; boshlang`ich siflarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etishning mavjud holatini o`rganish; pedagogik kuzatuv; suhbat; anketa so`rovi; pedagogik tajriba; matematik-statistik metod.

**BMIning metodologik asosi:** O`zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining mazmunini belgilab beruvchi direktiv-me'yoriy hujjatlar, xususan, O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risida» gi qonuni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy va O`rta maxsus xalq ta'limi vazirliklari tomonidan qabul qilingan qarorlar, me'yoriy hujjatlar va h.k.

---

[2] I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – b.-61.

**BMIning ilmiy yangiligi:** boshlang`ich siflarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etish muammosini pedagogik yo`nalishda BMIsifatida tadqiq etildi.

**BMIning nazariy ahamiyati quyidagilar bilan tavsiflanadi:**
boshlang`ich siflarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etishga yo`naltirilgan faoliyat mazmunini ishlab chiqildi; «ta'lim texnologiyasi», «o`quv jarayoniga texnologik yondashuv», «o`quv jarayonini  texnologik yondashuv asosida tashkil etish» kabi tushunchalar pedagogik nuqtai nazardan sharxlandi.

**BMIning amaliy ahamiyati:** boshlang`ich siflarda o`quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish omillari, yo`llari, pedagogik shart-sharoitlari ko`rsatib berildi. BMIishida ilgari surilgan nazariy qarashlar boshlang`ich siflarda ta'lim-tarbiya jarayonini mazmunan boyitadi, ushbu jarayonni takomillashtiradi hamda ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**BMIning ilmiy farazi**: boshlang`ich siflarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etish vositasida ta'lim samaradorligiga erishish mumkin, agarda:

-mazkur o`quv maskanlarida ta'limni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuv qaror topsa:

- boshlang`ich siflarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari jarayonida fanlararo aloqadorlikning ta'minlaniga erishilsa;

- boshlang`ich siflarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etishni amaliyotga tatbiq etilishiga erishilsa.

- boshlang`ich siflarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullariga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa.

**MBI tuzilishi**. Ish kirish, 2 bob, xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

## I BOB. BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARIDA ADABIY TAHLIL MALAKASINI SHAKLLANTIRISH VA TA'LIM MAZMUNINI UYG`UNLASHTIRISH IMKONIYATLARI

### Boshlang`ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash jarayoni va uning pedagogik-psixologik xususiyatlari

Boshlang`ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish metodikasida kichik yoshdagi o`quvchilarning badiiy asarni idrok qilishidagi psixologik xususiyatlar hisobga olinadi. Psixolog olimlarning tekshirishlaridan ma'lum bo`lishicha, asarni idrok qilishga , bilim olishga xizmat qiladigan komponentlar bilan birga , uni emostional-estetik his etish ham kiradi.Badiiy asarni yaxshi idrok etish uchun uni tushunishning o`zigina etarli emas. Asarni idrok etish murakkab jarayon bo`lib, asarga unda tasvirlangan voqelikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o`z ichiga oladi. Psixologik tekshirishlar natijasida kichik yoshdagi o`quvchilarning adabiy qahramonlarni idrok etishi va baholashidagi psixologik xusisiyatlari o`rganilgan va ular adabiy qahramonga ikki xil munosabatda bo`lishlari aniqlangan:

1.Adabiy qahramonga emostional munosabat;

2. Elementar tahlil qilish.

Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o`quvchilar o`z shaxsiy va axloqiy tushunchalaridan foydalanadilar. Bunday axloqiy tushunchalar kichik yoshdagi o`quvchilarda chegaralangan bo`ladi, albatta. Ular axloqiy sifatlardan botirlik, to`g`rilik, mehnatsevarlik, yaxshilik tushunchalarini ko`p ishlatadilar. qahramonlarning boshqa sifatlarini tasvirlash uchun ularning so`z boyliklari etishmaydi. O`qituvchining vazifasi o`quvchilar bilan tahlil qilib, ular nutqiga personajlarning axloqiy, intellektual, emostional sifatlarini tasvirlovchi so`zlarni kirita borishdan iborat. Bu adabiy qahramonlarning xarakterini yaxshi yoritish shartlaridan biri hisoblanadi.

4- sinfda ”qodir bilanSobir» hikoyasidagi qodir va xususiyatlarini ochishda elementar tahlilga tanlab o`qish asosida tarmoqlash usulidan foydalanib o`rgatilishi mumkin.O`qituvchi o`quvchilarga bergan savollariga javobni doskada tarmoqlash usulida yoritib bolradi. Masalan, qodir qanday bola? qodirning maqtanchoqligi tasvirlangan o`rinni topib o`qing. qodirning qo`rqoqligi ifodalangan o`rinni topib o`qing. qodirning yolg`on gapini Sobir qanday to`g`riladi? Shu o`rinni topib o`qing. qodirning zo`ravonligi ifodalangan o`rinni topib o`qing. O`qigan qismlaringiz asosida qodirning xususiyatlarini isbotlab bering. Shu savollar asosida doskada quyidagi jadval hosil bo`ladi:

Papkasining changi bilan sinfga kirmoqchi bo`ladi

Chetdan qo`rqib qochadi

| | | |
|---|---|---|
| qo`rqoq | tozalikka rioya qilmaydi | |
| Qodir | maqtanchoq | komandir bo`laman |
| zo`ravon | yolg`onchi | darsdan kechikkanda |
| yonidagilarni turtadi | odamday baliqlarni tutib olganman | |

O`qish darslarida o`qilayotgan asarning ongli o`zlashtirilishini ta'minlashda o`quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Badiiy asar ustida ishlash jarayoni. Badiiy asar ustida ishlash va uning asosiy bosqichlarini belgilashda o`qituvchi badiiy asarning san'at asari sifatida o`ziga xos xususiyatlari va o`quvchilarning tayyorgarlik darajasini nazarda tutadi.

Badiiy asarda barcha qismlar (g`oyaviy asos, kompozistiya, syujet, tasviriy vositalar) o`zaro bog`liq bo`ladi. Syujet rivoji asosida asar qahramonlarining yangi-yangi qirralari ochila boradi. Bu xususiyatlar asar ustida ishlashda uni yaxlit o`qish va idrok etishni talab etadi.

O`quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o`rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o`stirish orqali ta'lim-tarbiya berishni nazarda tutadi. Asar matnini tahlil qilish muallif fikrini, hissiyoti va xulosalarini tushunishga yordam beradi, asarda ifoda etilgan voqealarga munosabat uyg`otadi. Asar tahlili o`qituvchidan o`quvchilar faoliyatini ma'lum maqsadga yo`naltirishni taqozo qiladi.

«Maktabda badiiy asarni tahlil qilishdan asosiy maqsad asarda ifodalangan hayotiy voqeani yoritish orqali o`quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat yaratishdan iboratdir. O`quvchilarning yozuvchi oldinga surgan g`oya, muammolarni to`liq tushunishlariga erishmay turib, adabiyotning yoshlarni tarbiyalashdagi vazifasini amalga oshirib bo`lmaydi»1.

O`quvchi asarning mazmuni bilan uni mutolaa qilish paytida tanishsa, tahlil qilishda uning poetik vositalariga murojaat qiladi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil asar zamiridagi ma'noni chuqur o`rganishga yordam beradi.

O`qituvchi badiiy asar ustida ishlashda quyidagi masalalarni hal qilishi lozim:

1. Asar ustida ishlashning maqsad va mazmunini aniqlab olishi.
2. Asarni tahlil qilish uchun dars bosqichlarini belgilab olishi.
3. Har bir asar tahlili uchun topshiriqlar tizimini ishlab chiqishi.
4. Asarni qanday metodlar asosida o`rganishni aniqlashi.
5. O`quvchilar egallaydigan bilim, ko`nikma va malakalar doirasini belgilab olishi.

Boshlang`ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash uch asosiy bosqichga bo`linadi:

Birinchi bosqich (birinchi sintez). Bu bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit idrok etish asosida asarning aniq mazmuni va tasviriy ifoda vositalari bilan tanishtirish dan iborat.

Ikkinchi bosqich (analiz). Bu bosqichning vazifasi va ish mazmuni voqealar rivojining bog`lanishini belgilash, ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvori va ularning asosiy xususiyatlarini aniqlash (nega shunday qildi va bu uning qanday xususiyatini ochadi), asar kompozistiyasini ochish (tugun, kulminastion nuqta, echim), asarning aniq mazmunini tasviriy vositalar bilan birga tahlil qilish va qahramonlar xulq-atvorini baholash (muallif nimani tasvirlagani, qanday tasvirlagani, nima uchun u yoki bu dalilni tanlagani)dan iborat.

Uchinchi bosqich (ikkinchi sintez). Bu bosqichning ish mazmuni ishtirok etuvchi shaxslarning muhim xususiyatlarini umumlashtirish, qahramonlarni taqqoslash va baholash, asarning g`oyasini aniqlash, badiiy asarni hayotni bilish manbai va san'at asari sifatida baholash (qanday ma'lumotlarga ega bo`ldik, asar nimaga o`rgatadi, muallif o`z fikri va taassurotlarini qanday qilib aniq, ravshan va ta'sirli tarzda etkazadi va hokazo)dan iboratdir.

Badiiy asarni o`qishga tayyorgarlik. Asarni o`qishga kirishishdan oldin o`quvchilarni badiiy asarni o`qishga tayyorlash lozim bo`ladi. Chunki o`quvchilar asar mazmunini to`g`ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo`lishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o`tkaziladi. Tayyorgarlik ishlarining vazifalari quyidagilar:

1. O`quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishga ta'sir etadigan yangi ma'lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan dalillarni o`quvchilarning o`z hayotida kuzatganlari bilan bog`lay olishlariga sharoit yaratish.

2. Yozuvchining hayoti va ijodiga qiziqish uyg`otish.

3. O`quvchilarni asarni hissiy idrok etishga tayyorlash.

4. Asar mazmunini tushunishga xalal beradigan so`zlarning lug`aviy ma'nolarini tushuntirishdan iborat.

Tayyorgarlik ishlarining shakllari xilma-xil bo`lib, o`qituvchi asar mazmuni va sharoitga qarab ish turini tanlaydi. Tayyorgarlik davrida nimalar haqida ma'lumot berish maqsad qilingan bo`lsa, avvalo o`quvchilarning o`zlaridan ular haqida bilganlari so`rab aniqlanadi.Masalan, ”Kitobga ixlos” asarini o`qishga tayyorgarlikda o`quvchilarning dastlabki bilimlari quyidagicha aniqlanadi:

O`qituvchi: Bugun biz Vatanimizning o`tmishiga sayohat qilamiz. Sayohatimiz uxoro shahriga bo`ladi. Sayohatchilar ikki guruhga bo`linadi. Buxoro darvozalari ochilishi uchun bir necha tilsimlarni echishimiz zarur. Buning uchun har bir guruh o`ziga berilgan savol-topshiriqlarni bajarib, shohsupaga ko`tarilishi zarur.

Guruh uchun savol-topshiriqlar:

1.Tarixda yashagan buyuk olimlar, shoirlar, yozuvchilar, sarkardalardan kimlarni bilasiz?

2. Buxoroda qaysi buyuk shaxslar yashagan?

3. Buxorodagi tarixiy binolar, joylar nomini ayting.

2- guruh uchun ham shu tarzdagi savol- topshiriqlar beriladi yoki har ikala guruh uchun shu savol-topshiriqlar berilib, ”Kim oldin shahsupaga etib boradi?” sharti qo`yiladi.

Doskaga buyuk shaxslar portreti, tarixiy joylar tasvirlangan rasmlar ilib qo`yiladi.

Ekskursiya. Bu ish turidan tabiat tasviriga bag`ishlangan yoki ishlab chiqarish, qurilish, shahar, qishloq hayotiga, kasbga doir mavzular va tarxiy asarlar o`rganilganda foydalanish mumkin. Chunonchi, 1-sinfda “Issiqxonada”, 2-sinfda “Metropoliten” kabi mavzularni o`rganishdan oldin ekskursiya qilish maqsadga muvofiq.Ekskursiya o`quvchilarning asarda ifoda etilgan hodisalarni aniq va ongli o`zlashtirishlariga yordam beradi, bilimlarini chuqurlashtiradi, tabiat hodisalarini kuzatish va ularni aniq tasvirlash ko`nikmalarini shakllantiradi.

Ekskursiya bolalarda tabiatga mehr uyg`otadi, uni sevish va tabiat ehsonlarini asrash hissini tarbiyalaydi.

Ishlab chiqarish korxonalariga, muzey kabilarga ekskursiyalar esa tarixiy voqealarning to`g`ri idrok etishlarini ta'mitnlaydi; kattalarning mashaqqatli mehnati bilan tanishtiradi; o`quvchida mehnatga muhabbat uyg`otadi; kasbga yo`naltiradi.

Film namoyish qilish. Tarixiy materiallarni, asar muallifi hayotini o`rganishdan oldin film namoyish qilinsa, o`quvchilarning asarni idrok qilishlari faollashadi.Masalan, 1- sinfda

2- sinfda ”Gulzorda” hikoyasini o`qishda ”Mehrobdan chayon” filmidan parcha ko`rsatilishi,

3-4- sinfda Ibn Sino haqidagi asarlarni o`rganishda ”Ulug`bek xazinasi”,Alisher Navoiy haqidagi asarlar bilan tanishtirishda Alisher Navoiy filmi namoyish etilishi mumkin.

Kinofilm va diafilmlardan o`quvchilarni asarni o`qishga tayyorlash davrida foydalaniladi. Ular o`quvchilarning tasavvur qilishlariga, tushunchalarini oydinlashtirishga, ongli o`qish va emostional idrok etishlariga yordam beradi.Film namoyishida tug`ilgan ayrim savollariga yangi o`qiydigan asarlaridan javob topadilar. Tayyorgarlik ishlarini bunday uyushtirish o`quvchiloarning o`qishga bo`lgan qiziqishlarini oshiradi.

Boshlang`ich sinfda shoir, yozuvchilarning o`z tilidan o`qigan asarlari yoki ular haqida boshqalar aytgan fikrlarni magnit tasmasidan eshitttirilsa yoki video tasmadan ko`rsatilib, unga o`qituvchi hikoyasi qo`shilsa darsning samaradorligi yanada oshadi. Masalan, 4- sinfda O`zbekiston Respublikasi Davlat Mathiyasi aytilgach, A.Oripovning o`zi aytgan ”O`zbekiston” she'ri qo`yib eshittirilishi mumkin.

O`qituvchi hikoyasi. Bu metod asar muallifi haqida ma'lumot berishda eng samarali hisoblanadi.Asar muallifi shoir va yozuvchilar haqida so`zlab berilayotganda ularning portretlari, bolalar uchun yozgan asarlari namoyish etilsa, o`quvchilarning muallif ijodiga qiziqishlari ortadi. O`qituvchi yozuvchi va shoirlar haqidagi ma'lumotlarni o`quvchilar saviyasiga mos qilib, hajonli qilib hikoyalasa, o`quvchilarning badiiy asarni o`qishga ichki istagi kuchayadi, ularda

kitob o`qishga muhabbat ortadi. Yozuvchi haqidagi ma'lumot 1- sinfdan 4- sinfga borgunga qadar ko`paytirilib, chuqurlashtrilib boriladi.Asarni o`qishga tayyorgarlik bevosita o`quvchilarning mustaqil izlanishlari asosida ham tashkil etiladi. Masalan, ”Kitobga ixlos” (4-sinf) asarini o`qishga tayyorgarlikda o`quvchilarning o`tmishda yashagan tarixiy shaxslar haqidagi tushunchalari aniqlangach, o`quvchilar xayolan sayohatga olib chiqiladi.O`qituvchi o`quvchilarni Buxorodagi tarixiy muzeyga taklif etadi. Muzeyda o`quvchilar Abu Ali ibn Sino portretini kuzatadilar, u haqdagi yozuvlarni o`qiydilar (Muzey uchun sinfning biror tomoni ajratiladi.)

Abu Ali ibn Sino – ma'rifatpar alloma.

Abu Ali ibn Sino – buyuk hakim

Men kechalari kam uxlar, kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug`ullanmas edim.(Ibn Sino)

Bir kuni shohdan kutubxonasiga kirishga va u erda tibga oid kitoblarni mutolaa qilishga ruxsat so`radim. Shoh menga ruxsat berdi. (Ibn Sino)

Ibn Sino dorivorlar tayyolash, yurak kasalligi, jarrohlik va boshqa sohalarga doir 400 dan ziyod asar yozgan.

O`quvchilarni mustaqil izlanishga o`rgatishning yana bir usuli o`quvchilarga oldindan yozuvchi yoki asar yozilgan davr haqida kitoblar, manbalar tavsiya etilib, ulardan ma'lumotlar to`platiladi, albomlar tayyorlatiladi, so`ng o`quvchilar o`zlari aniqlagan ma'lumotlarni o`qib oyi so`zlab beradilar.

Sinfdan sinfga ko`chish bilan yozuvchi hayoti va ijodi haqidagi o`quvchilar bilimi ortib boradi. Asar muallifi bilan tanishtirishga qo`yilgan talablar ham ko`payadi. O`qituvchi qisqa ma'lumot berishdan yozuvchi hayoti bilan to`liqroq tanishtirishga o`tadi. Bunda u kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning yoshiga mos imkoniyatlarni, ular yozuvchi bilan qay darajada tanish ekanligi va uning asarlaridan nimalarni o`qiganligini hisobga oladi.

**Asar bilan tanishtirish.** Tayyorgarlik davridan so`ng 1-bosqich amalga oshiriladi. Bu bosqichning asosiy vazifasi asar mazmunini bilan tanishtirishdir. Badiiy asarni yaxlit idrok etish muhim bo`lgani uchun maktab tajribasida asar ustida ishlash shu asar yoki uning bir darsda o`rganishga mo`ljallangan qismi yaxlit o`qish usulida tanishtiriladi.

Hikoya, masal, she'rning mazmunini to`g`ri idrok etish, shuningdek, matnning emostional ta'sirini oshirish uchun ifodali o`qish katta ahamiyatga ega.

Asar matni bilan tanishtirishning bir necha usullari mavjud. Ular quyidagilar:

1. Matn o`qituvchi tomonidan ifodali o`qib beriladi (ba'zan asar matni magnitafon orqali ham eshittirilishi mumkin). o`quvchilar matn mazmuni bilan tanishtirilgach, o`qituvchi ularga boshlag`ich taassurotlarini aytishni talab qiladigan savollar beradi. Masalan, «Hikoyaning qaysi o`rni sizga yoqdi?», «qahramonlardan qaysi biri sizga ayniqsa yoqdi?», «Hikoya o`qilganda siz qaysi o`rinda juda xursand bo`ldingiz?» kabi va h. Kirish suhbati, birinchidan, asarning o`quvchilarga qanday ta'sir qilganini bilish, ikkinchidan, bolalarni asar matnini tahlil qilishga qiziqtirish, darsda o`quvchilar faolligini oshirish maqsadini ko`zda tutadi.

2.Yaxshi o`qiydigan o`quvchiga o`qitish. O`quvchining oldindan o`qituvchi o`qish yo`llari bilan tanishtiradi va uning o`qishini o`zi kuzatadi, xato va kamchiliklarini bartaraf etadi. Shundan so`g tayyorlangan o`quvchi sinf jamoasiga o`qib beradi.

3. Og`zaki qayta hikoyalab – so`zlab berish. Bu o`qituvchidan alohida tayyorgarlikning talab etadi. Chunki asar matniga yaqinlashtirib, badiiy vositalarini to`liq saqlagan holda hikoyalash zarur, aks holda o`quvchilarning badiiy asarni o`qishga bo`lgan qiziqishi susayadi.

4. Yoddan ifodali aytib berish. She'riy asarlar yoddan aytib berish orqali tanishtirilsa, o`quvchi o`qituvchining mahoratini yuqori baholaydi. O`zida ham yod olishga qiziqish paydo bo`ladi.

5. Asarning muhim dialogli o`rinlarini yoki butun asarni sahnalashtirish orqali tanishtirish.

6. Asarning bir qismini ( muammoli o`rniga) o`qituvchi o`qib beradi. qolgan qismini o`quvchilar ichda mustaqil o`qiydilar.

8. Asar musiqa sadolari ostida o`qib berilishi ham mumkin. Bu asarning ta'sirini kuchaytiradi , o`quvchilarning estetik didini tarbiyalaydi, ularni toliqishdan saqlaydi.

**Badiiy asar matni ustida ishlash.** Boshlang`ich sinflarda to`g`ri, tez, ongli va ifodali o`qishga o`rgatish vazifasi o`quvchilarda asarni tahlil qilish ko`nikmasini shakllantirish bilan birga amalga oshiriladi. O`qish malakalarini shakllantirish bilan matn ustida ishlashning o`zaro bog`liqligi asarni tahlil qilishga qanday yondashishni belgilab beradi.

Badiiy asar ustida ishlashning 2-bosqichi asar tahlilidir. Asarni tahlil qilishning asosiy yo`nalishi matnning aniq mazmuni (voqealar va uning rivojlanishi)ni, kompozistiyasini, ishtirok etuvchi shaxslarning axloqi va xarakterli xususiyatlarini, asarning g`oyasini aniqlash hisoblanadi.

Asarni tahlil qilishning metodik shartlaridan biri asar mazmunini uning tasviriy-ifodali vositalari bilan bog`liq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida asar ustida ishlash jarayonida ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustida ishlashning asosiy yo`nalishini belgilaydi, shuningdek, matnni tahlil qilish jarayonida

o`quvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning xarakterini aniqlab olishga yordam beradi

Asar tahlili jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

**Tanlab o`qish.** Bunda o`quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o`qiydi. Vazifa asarning mazmunini oydinlashtirish, sabab - natija bog`lanishini belgilash, badiiy xususiyatini ochish, o`qilgan matnga o`z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo`lishi mumkin. Masalan, 4 - sinfda "Oltin kuz" matnidan "Tabiatdagi o`zgarishlar berilgan qismlarni topib o`qing", "Baqa va taqa" ertagidagi "Taqachining nasihati berilgan joyni topish o`qing" kabi.

Tanlab o`qish matn ustida ishlashning eng samarali usulidir. Tanlab o`qishdan matn ustida ishlashning barcha bosqichlarida turli xil qiyinchilikda, murakkablikda foydalaniladi. U o`quvchilarda yaxshi o`qish sifatlarini o`stirish bilan birga ularning ijodiy tasavvuri, nutqi va zehnini o`stirishga yordam beradi.

Eng oddiy tanlab o`qish asar mazmunini yuzasidan bo`ladi. Masalan, 4- sinfda "Toshkentnoma" (M.Shayxzoda) asari yuzasidan tanlab o`qish uchun quyidagi topshiriqlar beriladi:

-She'rdan o`zbek xalqining mehmondo`stligi tasvirlangan o`rinni topib o`qing.

- Yoz faslining zo`rligi tasvirlangan o`rinni topib o`qing.

"Dehqonbobo va o`n uch bolakay qissasi" (A.Oripov) asari matni yuzasidan quyidagi topshiriq beriladi:

- Matndan Dehqonboboning Vatan haqidagi gaplarini topib o`qing.

Tanlab o`qishning yana ham murakkabroq turlari matndan sabab-natija munosabati bilan bog`langan faktlarni taqqoslashni, umumlashtirishni talab qiladigan o`rinlarini topib o`qish hisoblanadi. Masalan, "Xarita" hikoyasi (Normurod Norqobilov yuzasidan topshiriqlar:

- Sinf rahbari Rasulni nima uchun Samadga biriktirib qo`ydi? Shu o`rinni topib o`qing.

-Samadning Rasuldan arazlash sababi ifodalangan o`rinni topib o`qing.

Bunda o`quvchi biror qatnashuvvchi shaxs o`zini qanday tutishini, nima uchun u shunday tutishini tasdiqlash uchun matndan material tanlab o`qiydi.

Tanlab o`qish ongli va ifodali o`qish malakasini shakllantirishni matn ustida ishlash ko`nikmasini shakllantirish bilan birga qo`shib olib borishga, bolalarning ijodiy tasavvurini, nutqi va zehnini o`stirishga imkon beradi, shuning uchun undan o`qish darslarida keng foydalaniladi. Tanlab o`qish matn rejasini tuzishda ( matn qismiga uning mazmunini ifodalaydigan gapni, ya'ni reja qismini topishda) qahramonga tavsif berish (* matndan qahramonning muayyan bir xususiyatini , harakatini tavsiflovchi materiallar tanloash) da , asar g`oyasini aniqlash ( g`oyani anglatgan o`rinni topib o`qish) da tatbiq etiladi.

O`quvchilarning berilgan savol va topshiriqlarga o`z so`zlari bilan javob berishi. Mashqning bu turi o`quvchilarda o`qilganlar yuzasidan muhokama yuritish ko`nikmasini o`stirishga, asarda qatnashuvchi qahramonlarni baholashga, muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan asar g`oyasi o`rtasidagi bog`lanishni aniqlashga imkon beradi. Ishning bu turida beriladigan savollar ma'lum maqsadga yo`naltirilgan va muayyan izchillikda bo`lishi ,o`quvchilarning mustaqil fikrlashga undashi lozim. Boshlang`ich sinf o`qish darslarida savolva topshiriqlar qaysi maqsadga yo`naltirilganiga ko`ra quyidagicha tasnif qilinadi:

1.Asar mazmunini o`zlashtirish va qayta hikoyalashga doir savol- topshiriqlar.

2. Asar tilini o`rganish va o`zlashtirishga doir savol-topshiriqlar.

Sabab-natija tarzidagi savollardan ham foydalaniladi. Agar o`qituvchi asar g`oyasini tushunishda o`quvchilarga yordam berishni ko`zda tutsa, savol sabab-natija tarzida bo`ladi. Anvar Obidjonning ”Odobli bo`lish osonmi?” ertagi (4- sinf) g`oyasi o`quvchilarni salomlashish odobi bilan tanishtirish, ularda muomala madaniyatini tarbiyalashdir. Ertakdagi asosiy fikrni aniqlash uchun o`qituvchi ”Anvar Obidjon aytmoqchi bo`lgan salom berish mavridlarini o`z so`zingiz bilan aytib bering.” ,”Nima uchun echki sichqonga nasihat qildi?”, ”Toshbaqaning sichqoncha haqidagi fikrini gapirib Bering” kabi savol-topshiriqlardan foydalaniladi.

Savol-topshiriqlar ustida jamoa, juft va yakka tartibda ishlanadi.

Boshlang`ich sinflarda savol-topshiriqlarga javob berish ish turiga katta o`rin berilgan. O`qituvchining vazifasi ana shu savol-topshiriqlar ustida ishlash usullarini oldindan belgilab olishdir. Ijodiy xarakterdagi savollar o`quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. 4-sinf «O`qish» kitobidan o`rin olgan «qodir bilan Sobir» matni yuzasidan o`quvchilarni o`z fikrini aytishga undovchi «Sobir o`qishdan kechikish sababini ochiq aytib to`g`ri qildimi?», «Uning o`rnida siz bo`lganingizda nima qilardingiz?» kabi savollar o`quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini, og`zaki nutqini o`stiradi va matnni yaxshi o`zlashtirishlariga yordam beradi.

O`quvchilarni savol berishga o`rgatish.O`quvchilarni savol berishga o`rgatish matn ustida ishlashda yaxshi natija beradi. Metodist olimlarning fikricha, to`g`ri berilgan savolda yarim javob tayyor bo`ladi. O`quvchilar uni ongli o`zlashtira olsalargina matn yuzasidan savol bera oladilar. O`quvchilarga savol berishni o`rgatishni 2-sinfdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

O`quvchilarni ongli ravishda savol tuzishga o`rgatish uchun o`qituvchi matnga o`zi tuzgan yoki «O`qish kitobi»da berilgan savollarni tahlil qiladi. Tahlil uchun «Nega u yoki bu savol qo`yilgan? Unda Kim yoki nima haqida gap boradi. Savol ko`proq qaysi so`zlar bilan boshlanadi? « kabi savollarni ishlatadi va matndan foydalangan holda bu savollarga javob berishni o`rgatadi. Ikkinchidan, o`qituvchi o`quvchilar e'tiborini matnga savol tuzish yo`liga qaratadi va savol tuzishdan oldin matnni diqqat bilan o`qish, qatnashuvchi shaxslarni ko`rsatish, savol tuziladigan qismni ajratish kerakligini tushuntiradi. Savol tuzishga o`rgatishning

boshlang`ich bosqichi bu mashq jamoa bo`lib bajariladi va ta'limiy xarakterda bo`ladi; buning uchun qulayroq savol ajratilib, nima uchun u qiziqarli ekani yoki, aksincha, noqulay bo`lsa nima uchun noqulayligi tushuntiriladi. Masalan, 3- sinfda”Ahillik ulug` baxt” ertagida ”Odamlarning cholning bolalari haqidagi fikri yuzasidan savol tuzing (Odamlar aqlli cholning bolalari haqida nima deyishdi?) 4- sinfda ”qovun sayli” (Sh.Sa'dulla) hikoyasi yuzasidan savol tuzish topshirig`i quyidagicha beriladi:

-Hikoyaning birinchi xatboshini o`qing va shu qism yuzasidan savol tuzing.

-HIKOYANING 1 XATBOSHISIDA QO`LLANGAN SO`ZLARNING MA'NOSINI IZOHLASH BO`YICHA SAVOL-TOPSHIRIQLAR TUZING.(Bejirim, sertor, so`zlarining ma'nosini izohlang.)

-Hikoya qahramonlari yuzasidan savollar tuzing kabi.

Keyinchalik muhokama va ijodiy savollar berishni ham o`zlashtirib oladilar.

Matnni tasvirlash. Matnni 2 xil tasvirlash mumkin: 1) so`z bilan tasvirlash; 2) grafik tasvirlash.

So`z bilan tasvirlash o`ziga xos murakkab ish turi bo`lib, unda manzarani so`z yordamida aniq qayta tiklash talab etiladi. Bunda so`zlarni aniq tanlashga e'tibor qaratiladi. Turli tabiat manzaralarini, qatnashuvchi kishilarning tashqi ko`rinishini, voqea sodir bo`lgan joylarni tasvirlash topshiriq qilib berilishi mumkin.

Matnni so`z bilan tasvirlashga o`rgatishni darslikda berilgan rasmni matndagi shu rasmga mos qism bilan taqqoslab tasvirlashdan boshlash kerak.

So`z bilan tasvirlash bos qichma-bosqich, maxsus tayyorgarlikdan so`ng amalga oshiriladi:

1. Matndan manzara, vaziyat yoki qahramonlarning tashqi ko`rinishi tasvirlangan o`rinlar aniqlanadi.

2. Nisbiy tugallangan o`rinlar ajratiladi.

3. Tasvirlashga leksik-uslubiy tayyorgarlik ko`riladi, ya'niyozuvchi, shoir qo`llagan lug`aviy birliklarga o`quvchilar diqqati tortiladiva ular tahlil qilinadi. Tasvirlashda so`zni aniq tanlashga yordam beradi.

4. So`z bilan tasvirlashga o`rgatishning dastlabki paytida doskaga foydalaniladigan so`zlar yozib qo`yilishi zarur. So`z bilan tasvirlash qayta hikoyalashga aylanib asligi lozim.

Grafik tasvirlash ko`proq uyda bajariladi. Buning uchun o`quvchilar tasvirlanadigan matn qismini ajratadilar, uni diqqat bilan o`qib chiqadilar, mazmunini o`zlashtiradilar va unga mos rasm chizadilar.Bunda o`quvchi Lar bilan qanday ranglardan foydalanish, ranglar ifodalaydigan ma'nolar bo`yicha suhbat o`tkaziladi. Rasmlar ko`rgazmasi tashkil etiladli. Har bir rasm muallifi

o`zi chizgan rang tasvirini izohlab beradi. Kompyuterlashtirilgan sinflar grafik tasvirlashda sinfda bajartirilishi mumkin. Bunda o`quvchilarning ijodiy yondashuvlariga imkon beriladi.

O`quvchilar asar voqealari rivojini seriyali rasmlar asosida muayyan izchillikda tasvirlashlari ham, har bir rasm seriyasi ostida shu qismda ifoda etilgan muhim fikrlarni yozib qo`yishlari ham mumkin. Bular asar matnini to`liq, qayta hikoyalash , shuningdek, o`qilgan hikoya,maqolaning rejasini tuzish, matn mazmunini, uning tasviriy vositalarini bilib olishga yordam beradi.

**Asar rejasini tuzish.** Reja matn mazmunini ongli va chuqur tushunishda, asosiy fikrni ajratishda, voqealarning izchilligini belgilashda, matn qismlarining o`zaro bog`lanishini tushunishda o`quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o`quvchilar nutqi va tafakkurini o`stiradi. Ular matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo`lishga va har bir qismning asosini topishga ularga qisqa va aniq sarlavha topishga, uni reja qismi sifatida shakllantirishga o`rganadilar.

Reja tuzishga tayyorgarlik ishlari savod o`rgatish davridayoq boshlanadi. Tayyorgarlik mashqining eng oddiy turi berilgan sarlavhalardan kichik matn mazmuniga mosini topib qo`yish hisoblanadi. Bunday mashqqa o`rgatishda o`qituvchi sarlavha asosiy fikrni ifodalashini ta'kidlaydi, bolalar topgan sarlavhani tahlil qilib, u yoki bu sarlavha nima uchun mos yoki mos emasligini tushuntiradi. Reja tuzishga tayyorgarlik ishining 2-turi o`qituvchi rahbarligida tanlab o`qish hisoblanadi, bolalar matndan o`qituvchi bergan savolga javob bo`ladigan o`rinni topib o`qiydilar.

Reja tuzish «oddiydan murakkabga» tamoyili asosida asta-sekin murakkablashtirilib, muayyan izchillikda o`tkazib boriladi. O`quvchilar 1-sinfda o`qilgan kichik matnga o`qituvchi rahbarligida so`roq gap tarzida sarlavha tanlashlari, 2-sinfda kichik maqolaning rejasini o`qituvchi rahbarligida so`roq yoki darak gap tarzida tuzishlari, 3-sinfda o`qilgan matn rejasini jamoa bo`lib tuzishlari, 4-sinfda mustaqil reja tuza olishlari kerak.

Rejaning eng oddiy shakli rasmli reja hisoblanadi. Buning uchun avval bolalar kitobda berilgan rasmlardan matn qismiga mosini tanlashga va uni nomlashga o`rgatiladi, keyin matn qismiga tayyor rasm berilmaydi, uni bolalarning o`zlari so`z bilan tasvirlaydilar. Hikoya o`qiladi va qismlari bo`yicha tahlil qilinadi, so`ng o`quvchilar matnning 1-qismini o`qiydilar, o`qituvchi ulardan qanday rasm chizish mumkinligini so`raydi. qolgan qismlari ustida ham ishlar shu tarzda ishlanadi.O`quvchilar chizgan rasmlariga nom (sarlavha) qo`yadilar. Ular qo`ygan nom sarlavha doskaga reja qismi tarzida yozib beriladi.

O`quvchilar rasmli reja tuzishdan logik reja tuzishga o`tadilar, logik reja tuzish quyidagi izchillikda o`rgatiladi:

1. O`qituvchi qismlarga bo`lingan matnga tanlab reja tuzadi va matn rejasining o`rnini almashtirib, sarlavha tarzida xattaxtaning chap tomoniga yozib qo`yadi. O`quvchilar matnning 1-qismini o`qiydilar, shu qism mazmuniga mos sarlavhani topadilar, uni o`qituvchi xattaxtaning o`ng tomoniga yozadi. Ana shu tarzda xattaxtada o`qilgan matnning rejasi hosil bo`ladi.

2. Matn qismlarini tahlil qilish jarayonida o`quvchilar o`qituvchi rahbarligida har bir qismdagi asosiy g`oyani aniqlaydilar va unga sarlavha topadilar, o`qituvchi sarlavhalarni reja tarzida xattaxtaga yozib boradi.

3. qismlarga bo`linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar matn rejasi tartibida doskaga yoziladi. O`quvchilarga berilgan sarlavhalardan foydalanib, matnni qismlarga bo`lish topshiriladi. Ular matnni o`qishadi va sarlavhalarga tegishli qismni ajratadilar.

4. qismlarga bo`linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar aralash tarzda xattaxtaga yoziladi. O`quvchilarga yuqoridagiday qismlarga bo`lish topshiriladi. O`quvchilar matnni o`qib, nisbiy tugallangan qismni ajratadilar va unga mos sarlavhani xattaxtadan tanlaydilar. Ish shu tarzda davom ettirilib, matn rejasi tuziladi.

O`quvchilarda reja tuzish ko`nikmasi hosil bo`lgach,ular matnni mustaqil ravishda qismlarga bo`ladilar.( 3-4- sinf) Har bir qismga reja tuzadilar. Rejani 3-4- sinflarda darak va atov gap tarzida shakllantiriladilar. Rejada har bir qismi bir turdagi gaplar shaklida bo`lishi lozim.

Hozir maktab tajribasida izohli o`qish, ijodiy o`qish, adabiy o`qish usulidan, muammoli o`qitish metodlaridan, ilg`or pedagogik texnologiya metodlaridan ham keng foydalanilmoqda. Masalan, A. qodiriyning «Chin do`st» hikoyasini o`rganishda izohli o`qish metodidan foydalanish mumkin. Chunki bu asar matnida o`quvchilarga lug`aviy ma'nosi tushunarsiz bo`lgan so`zlar uchraydi. Masalan, hikoyadagi saboqdosh, mirzaboshi, havolanmas, asrandi, g`arq, holda, mahdum, marsiya, xun, hamnishin, dildor, notavon, g`urbat kabi so`zlar izoh talab etadi.

Metodik adabiyotlarda badiiy asar matnini tahlil qilishning uch usuli: badiiy asarni yozuvchiga ergashib yaxlit o`rganish; obrazlar vositasida o`rganish, mavzuli - muammoli o`rganish alohida ajratib ko`rsatiladi.

Boshlang`ich sinflarda, asosan, tekstual tahlildan foydalaniladi, ya'ni, o`qituvchi asarni tahlil qilishda asar matniga asoslanadi. Uni o`zgartirmagan holda undagi ma'noni, jozibani o`quvchilarga etkazib beradi.

Boshlang`ich sinflarda muammoli tahlil usulidan ham foydalanish mumkin. Masalan, «Bobur va Humoyun» hikoyasini o`rganishda o`quvchilarga «Boburning aytgan gaplari o`rinlimi?», «Hikoyadagiday holat sodir bo`lishi mumkinmi?» kabi muammoli savollar berish o`rinli bo`ladi. O`quvchilar asarni ichda o`qiydilar, jamoa bo`lib fikr almashadilar, bahslashadilar. Bahs davomida o`quvchilar ma'naviy olamida ham, aqliy dunyosida ham

muayyan o`zgarishlar, rivojlanishlar sodir bo`ladi. Asar tahlilida qo`llanadigan tanlab o`qish, unga munosabat bildirish, munosabatlarning turli xilda bo`lishi ham munozarani keltirib chiqaradi. Munozarali o`rin muammoni yuzaga keltiradi. Endi o`quv jarayoni oldida muammoni to`g`ri hal etish vazifasi turadi.

Shunday qilib, boshlang`ich sinflarda ham badiiy asar matnini tahlil qilishda, umuman, badiiy asarlarni o`rganishda o`quvchi shaxsiga kuchli ta'sir qiluvchi, ularning saviyasiga mos, bilimlarning o`zlashtirilishini ta'minlovchi metod va usullardan, tahlil turlaridan foydalanish mumkin.

Boshlang`ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish va ular ustida ishlash jarayonining asosiy bosqichlari

O`zbek maktablarida taniqli metodis olimlar T.G.Ramzaeva, M.S. Vasileva, V.G.Goreskiy, K.T. Golenkina, L.A.Gorbushina, M.I. Omorokova, E.A. Nikitina, N.S.Rojdestvenskiylar ishlab bergan takomillashgan sinfda o`qish metodikasidan ijodiy foydalanilmoqda.

Badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to`g`ri, tez, ongli, ifodali o`qish malakalarini shakllantirish bir jarayonda boradi(asarning mazmunini tushintirishga oid topshiriq o`qish malakalarini takomillashtirish topshirig`i ham hisoblanadi).

2. Asarning g`oyaviy – tematik asoslarini, uning obrazlari syujet chizig`i, kompozitsiyasi va tasviriy vositalarni tushintirish o`quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga yaxshi xizmat qiladi, shuningdek, bog`lanishli nutqning o`sishi (lug`atining boyishi va aktivlashishi)ni ta'minlaydi.

3. O`quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish, asar mazmunini ongli idrok etishning asosi vauni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4. Sinfda o`qishga o`quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish va atrof – muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish hamda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Asarni tahlil qilishda hisobga olish zarur bo`lgan muhim omillardan biri uning o`quvchilarga emotsional ta'siridir. O`quvchilar muallifning asosiy fikrini tushinibgina qolmay, balki, muallif hayajonlangan voqeadan ular ham hayajonlansinlar, loqayd bo`lmasinlar. Matnni tahlil qilish o`quvchida fikr qo`zg`atishi, hayotiy tajribasining muallif qayd etgan faktlarga to`g`ri kelish – kelmasligini aniqlashi zarur. Tahlil davomida asarning estetik qimmati, badiiy go`zalligi ham alohida qayd qilib o`tiladi.

O`qish metodikasi adabiyotshunoslik, psixologiya, pedagogika ishlab bergan nazariy qoidalarga asoslanadi. Sinfda o`qishni to`g`ri uyushtirish uchun o`qituvchi badiiyasarning o`ziga

xos xususiyatlarini, ta'limning turli bosqichlarida o`qish jarayonining psixologik asoslarini, kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning matnni idrok etish va o`zlashtirish xususiyatlarini hisobga olish zarur.

O`qish kitoblarida turli janrdagi badiiy asarlar va ilmiy – ommabop maqolalar berilgan. Istalgan asarning ob'ektiv mazmuni butun borliq, mavjudot, uning turli tomonlari, faktlar va ularning bir – biriga ta'siri hisoblanadi. Badiiy asarda hayot obrazlar orqali tasvirlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, badiiy asar markazida inson, uning jamiyat va tabiatga munosabati turadi.

Badiiy asarda borliqni, voqeilikni obrazlar vositasida tasvirlash, obektiv mazmun va subektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy – amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, badiiy asar ustida ishlashni tashkil qilishda obrazlar va muallifning asarda tasvirlangan voqealarga munosabati o`qituvchining diqqat markazida turadi. O`quvchilar voqeylikni obrazlar orqali tasvirlashning o`ziga xos xususiyatlarini asta tushina boshlaydilar. Ikkinchidan, har qanday badiiy asarda aniq davrdagi voqelar tasvirlanadi. Shuning uchun asarda tasvirlangan voqelarga tarixiy yondashilgan taqdirdagina matnni to`g`ri o`qish, qatnashuvchi shaxslarning xatti – harakati sabablarini tushinish, faktlar va voqealarni haqqoniy baholash mumkin. Buni boshlang`ich sinflarga tadbiq etganda, avvalo, bolalarni asarda tasvirlangan davr bilan qisqacha tanishtirish, keyin o`quvchilarda qatnashuvchi shaxslarning xatti – harakatini ular yashagan davrni va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda baholashni o`stirish tushiniladi. Uchinchidan, yozuvchining hayoti va qarashlari bilan o`quvchilarning yoshlariga mos ravishda tanishtirish maqsadga muvofiq.

Muallif badiiy asarda tasvirlangan hayotiy faktlarga, ijtimoiy hodisalarga, jamiyatning u yoki bu tabaqasi vakillariga o`z munosabatini ifodalashga harakat qiladi. Yozuvchining hayotiy materiallarga bahosi aniq faktlar asosida yaratilgan badiiy asarning g`oyaviy mag`zini tashkil etadi. Asarning g`oyaviy yo`nalishi yozuvchining dunyoqarashiga bog`liq. To`rtinchidan, badiiy asarni tahlil qilishda o`quvchilarni asarning g`oyaviy yo`nalishini tushinishga o`rgatish muhimdir. Bu asarni to`g`ri idrok etish uchun, matn ustida ishlash ko`nikmasini, o`quvchilarning dunyoqarashini, fuqarolik tuyg`usini shakllantirish uchun zarur. Asarning tarbiyaviy ahamiyati o`quvchiga ta'sir kuchi uning g`oyaviy yo`nalishiga bo`g`liq.

Badiiy asar ustida ishlashni to`g`ri tashkil qilish uchun shakl va mazmun birligi haqidagi qoida e'tiborga olinadi.

Boshlang`ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish metodikasida kichik yoshdagi o`quvchilarning badiiy asarni idrok qilishdagi psixologik hususiyatlar hisobga olinadi. Psixolog olimlarning tekshirishlaridan ma'lum bo`lishicha, asarni idrok etishga, bilim olishga xizmat qiladigan komponentlar bilan birga uni emotsional – estetik his etish ham kiradi. Badiiy asarni yaxshi idrok etish uchun uni tushinishning o`zigina etarli emas. Asarni idrok etish murakab

jarayon bo`lib, asarga, unda tasvirlangan voqeylikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o`z ichiga oladi. Psixologik tekshirishlar natijasida kichik yoshdagi o`quvchilarning adabiy qahramonlarini idrok etishi va baholashidagi psixologik xususiyatlari o`rganilgan va ular adabiy qahramonga ikki xil munosabatda bo`lishlari aniqlangan: 1) adabiy qahramonga emotsional munosabat; 2) elementar tahlil qilish.

Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o`quvchilar o`z shaxsiy axloqiy tushunchalaridan foydalanadilar. Bunday axloqiy tushunchalar kichik yoshdagi o`quvchilarda chegaralangan bo`ladi, albatta. Ular axloqiy sifatlardan botirlik, to`g`rilik, mehnatsevarlik, yaxshilik tushunchalarini ko`p ishlatadilar. qahramonlarning boshqa fazilatlarini tasvirlash uchun ularning so`z boyliklari etishmaydi. O`qituvchining vazifasi asarni o`quvchilar bilan tahlil qilib, ular nutqiga qahramonlarning axloqiy, intellectual, emotsianal sifatlarini tasvirlovchi so`zlarni kirita borishdan iborat. Bu adabiy qahramonlarning xarakterini yaxshi yoritish shartlaridan biri hisoblanadi.

Kichik yoshdagi o`quvchilar qahramonlarni baholashni o`rganib olgunga qadar ularga o`z munosabatlarini asoslashda qahramonlarning xatti – harakatidan kelib chiqadilar, u harakat qilgan sharoitni hisobga olmaydilar. O`quvchilar qahramonlarning xatti – harakati haqida mamnunlik bilan so`zlab beradilar, ularga munosabat bildiradilar.

Ma'lumki asarda qatnashuvchi shaxslarning xarakteri ularning axloqiy xususiyatlarini anglash asosida tushiniladi (kishining nima qilishini emas, balki nima uchun shunday qilishi kerakligini bilish muhimdir); qahramonning axloqiy xususiyatlari ustida o`quvchilar bilan maqsadga muvofiq ishlab boorish zarur. Kichik yoshdagi o`quvchilar qahramonlarining xislatlarini anglashlari asarda bu xislatlarning qaytarzda tasvirlanishiga bog`liq. Agar muallif asarida qahramonlarining xatti – harakatini tasvirlasa ularning xislatlari shu xatti – harakatida namoyon bo`lsa, o`quvchilar ularni osonroq tushunadilar, agar ularning xislatlari kechinmalari va fikrlarida ifodalansa, o`quvchilar ularni tushinishda qiynaladilar.

Badiiy asarni tahlil qilish jarayonini to`g`ri tashkil qilish uchun o`qituvchi asarni, xususan, unda qatnashuvchi shaxslarni idrok etishga qanday shartlar ta'sir qilishini bilishi muhimdir.

Badiiy asar ustida ishlash va uning asosiy bosqichlarini belgilashda o`qituvchi sinfda o`qish darslarining ta'lim – tarbiyaviy vazifalariga, san'at asari sifatida badiiy asarning o`ziga xos xususiyatlariga va kichik yoshdagi o`quvchilarning yoshlariga mos ravishda badiiy asarni idrok etish xususiyatlariga amal qiladi.

Badiiy asarda barcha komponentlar (g`oyaviy – tematik asos, kompozitsiya, syujet, tasviriy vositalar) o`zaro bog`langan bo`ladi. Asarda obraz rivojlanib boradi. Asarning syujet chizig`i bilan bog`liq ravishda obrazning yangi – yangi tomonlari ochila boradi. Bu xususiyatlar

asar ustida ishlashda uni yaxlit o`qishni, idrok etishni, ya'ni sintez qilishni talab etadi. Asar bvoshidan oxirigacha o`qilgandan so`ng analiz qilinadi, so`ng yana yuqori sifatli sintezga o`tiladi. Shunay qilib, asar ustida ishlash yo`lini umumlashtirib ifodalanganda, quyidagicha bo`ladi: birinchi sintez > analiz > ikkinchi sintez. Shularga asoslangan holda, badiiy asar ustida ishlash uch asosiy bosqichga bo`linadi:

**Birinchi bosqich** (birinchi sintez) bu bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit idrok etish asosida asarning aniq mazmuni bilan, uning syujet chizig`i bilan tanishtirish, asarning emotsional ta'sirini aniqlashdir.

**Ikkinchi bosqich** (analiz) bu bosqichning vazifalari va ish mazmuni: syujet rivojining sabab – natija bog`lnishini belgilash; ishtirok etuvchi shaxslarning xulq – atvori va ularning asosiy xususiyatlarini aniqlash (nega shunday qildi va bu uning qanday xususiyatini ochadi); asar kompozitsiyasini ochish (tugun, kulminatsiya, echim), asarning aniq mazmunini tasviriy vositalar bilan birga tahlil qilish va qahramonlar xulq – atvorini baholash (muallif nimani tasvirlagani, qanday tasvirlagani, nima uchun u yoki bu faktni tanlagani )dan iborat.

**Uchinchi bosqich** (ikkinchi analiz) bu bosqichning ish mazmuni ishtirok etuvchi shaxslarning muhim hususiyatlarini umumlashtirish, qahramonlarni taqqoslash va baholash, asarning g`oyaviy yo`nalishini aniqlash, badiiy asarni hayotni bilish manbai va san'at asari sifatida baholash (qanday yangilikni bilib oldik, asar nimaga o`rgatadi, muallif o`z fikri va taassurotlarini o`quvchiga qanday qilib aniq va ravshan, tasirli tarzda etkazadi v.h.)dan iboratdir.

Badiiy asarni idrok etishdan oldin tayyorgarlik ishlari bajariladi, ikkinchi sintezdan so`ng esa o`qilgan asarga bog`liq holda ijodiy xarakterdagi ishlar o`tkaziladi.

O`qishga tayyorlash va asar ustidagi yakunlovchi ishlarni o`quvchilarning hayotiy tajribasi bilan bog`lash va bolalarning atrof – muhit haqidagi bilimlarini aniqlash, fikr mulohazalarini chuqurlashtirish zarur. Masalan, o`qituvchi A.qahhorning “Oltin yulduz” hikoyasini o`qishdan oldin o`quvchilar bilan qisqacha suhbat o`tkazib, Ulug` Vatan urushi qahramonlari general Sobir Rahimovning, Ahmadjon Shukurovning jang maydonida mardanovor kurashi, fashist bosqinchilar ustidan qozonilgan g`alabaga qo`shgan ulkan hissasi haqida qisqa tushuncha beradi. Hikoya ustida ishlashning yakunlovchi bosqichida o`quvchilarga Ahmadjon Shukurovni qanday tasavvur qilganliklari, Ulug` Vatan urishi qahramonlari haqida yana qanday yangiliklarni bilib olganliklarini gapirib berish tavsiya qilinadi.

Agar badiiy asar maqsadga muvofiq tahlil qilinsa, bolalar faollashadi, chunki o`quvchi uchun badiiy asar analizi ijodiy jarayondir.

O`quvchilar asar mazmunini to`g`ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma'lum tasavvurga, borliq haqida ma'lum darajada aniq bilimga ega bo`lishlari zarur. Bu xulosa ko`gina

tadqiqotlar natijasida aniqlanib, maktab tajribasida tasdiqdan o`tgan. Agar o`quvchilarda bunday bilim etarli bo`lmasa, asarni o`qishdan oldin bolalar tasavvurini boyitish va unga aniqlik kiritishga qaratilgan tayyorgarlik ishlari o`tkaziladi.

Asarni idrok etishda unda muallif o`z fikrinigina emas, balki, tasavvurini ham aks ettirishi hisobga olinadi. Bolalar asarni aniq, emotsional idrok etishlari uchun uni ifodali o`qish lozim. Bunda asarni o`qishdan oldin, o`tkaziladigan tayyorgarlik mashqlari muhim ahamiyatga ega.

Tayyorgarlik ishlarining vazifasi: a) o`quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok etishga ta'sir etadigan yangi ma'lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan faktlarni o`quvchilarni o`z hayotida kuzatganlari bilan bog`lay olishlariga sharoit yaratish; b) yozuvchining hayoti bilan tanishtirish, yozuvchiga uning ijodiga qiziqish uyg`otish;v) o`quvchilarni asarni emotsional idrok etishga tayyorlash; g) asar mazmunini tushinishga xalal beradigan so`zlarning leksik ma'nosini tushintirishdan iboratdir.

Asarni o`qishdan oldin tayyorgarlik mashqlarini o`tkazish – o`tkazmaslik masalasini asarning mazmuni va o`quvchilarning umumiy saviyasini hisobga olib, o`qituvchi hal qiladi.

Tayyorgarlik ishlarini tashkil etish shakillari xilma- xildir. Ulardan qaysi shaklni qo`llas asarning g`oyaviy - tematik asosiga, o`quvchilarda aniq bilim bor – yo`qligini, maktabning moddiy bazasi va boshqa qator xususiy ishlarga bog`liq. Maktab tajribasida tayyorgarlik ishlarining didaktik formalaridan ekskursiya, filmlar ko`rsatish, o`qituvchi hikoyasi suhbat keng qo`llanadi.

**Ekskursiya.** Tabiat tasviri haqidagi asarlarni o`qishdan oldin tabiatga ekskursiya qilish o`quvchilar bilimini chuqurlashtiradi, ularda tabiat hodisalarini kuzatish va aniq tasvirlash ko`nikmalarini shakllantiradi. Ekskursiya orqali bolalarda tabiatni sevishga, unga ehtiyotkorlik bilan munosabvatda bo`lishga zamin yaratiladi. Masalan, Z.Diyorning “Bahor keldi” she'ri bahor faslida tabiatga ekskursiya qilingandan so`ng o`qilsa, o`quvchilar she'rda aks ettirilgan tabiat tasvirini yaxshi idrok etadilar va uning go`zaligi, jozibasidan ta'sirlanadilar. Z.Diyorning Ko`k shohiga o`ralgan, qir, adirlar yon bag`riga qirmiz gilam to`shalgan, Daraxtlarga kirgan jon kabi misralari mazmunini yaxshi tushinadilar.

O`rganilgan asar mazmuniga qarab, muzey, ishlab chiqarish, qurilish, fermaga shahar (qishloq) ning diqqatga sazovor joylariga ham ekskursiya o`tkaziladi.

**Filmni namoyish qilish.** Kinofilm va diafilmlardan “kirish” sifatida foydalanish o`quvchilarning tasavvuri va tushunchalarini oydinlashtiriladi, sistemaga soladi, yangiliklar bilan boyitadi.

**O`qituvchi hikoyasi.** Asar muallifi, yozuvchi haqida ma'lumot berishda eng samarali metod o`qituvchi hikyasi hisoblanadi. Bunda o`qituvchi, juda qisqa bo`lsa ham o`quvchilarni

yozuvchi – shoir bilan tanishtiradi, uning sevgan mashg`uloti, kasbi haqida o`quvchilar saviyasiga mos hayajonli hikoya qilib beradi, rasmini yoki bitta ikkita kitobini ko`rsatadi. O`qituvchining bunday hikoyasi o`quvchilarning badiiy asarga qiziqishlarini orttiradi, kitobga muhabbat uyg`otadi. 1 – sinfda ta'limning boshlang`ich bosqichida o`qituvchi yozuvchi haqida juda qisqa ma'lumot beradi. Masalan, "o`qish kitobi" dagi qudrat Hikmatning do`stlik haqidagi she'rini o`qishdan oldin o`qituvchi bolalarga q.Hikmat taniqli bolalar shoiri she'rlarining asosiy qahramonlari kattalarning yordamchisi bo`lgan bolalar hisoblanadi, deb shoirning kitoblaridan ko`rsatadi. Bolalar "Do`stlik" she'rini yodlaydilar.

Sinfdan sinfga ko`chish bilan yozuvchi hayoti va ijodi haqidagi bolalar bilimi chuqurlashtira boriladi. Asar muallifi bilan tanishtirshga qo`yilgan talablar o`sa boradi. O`qituvchi epizodik ma'lumot berishdan yozuvchi hayoti bilan to`liqroq tanishtirishga o`tadi. Bunda kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning yoshiga mos imkoniyatlarini, ular yozuvchi bilan qay darajada tanish ekanligi va uning asarlarida nimalarni o`qiganlarni hisobga oladi.

Ma'lumki, badiiy asarni yaxlit idrok etish muhim bo`lgani uchun maktab tajribasida asar ustidaishlashni shu asarni yoki uning bir darsda o`rganishga mo`ljallangan qismini yaxlit o`qishdan boshlash odat bo`lib qoladi. Hikya, masal, she'rning mazmunini to`g`ri idrok etish, shuningdek, matnni emotsional ta'sirini oshirish uchun ifodali o`qishga katta ahamiyatga ega. Buning uchun asarni o`qituvchi (yoki oldindan tayinlab qo`yilgan o`quvchi) o`qiydi. Bu vaqtda o`quvchilarning kitoblari yopiq bo`ladi. Shuningdek, asarni yaxlit idrok qilish maqsadida magnitafon lentasiga yozuvdan, filmda foydalanish ham mumkin. Ba'zi matnlarni musiqa adosi ostida ifodali o`qib berish hammaqsadga muvofiqdir. Bu asarning ta'sirini kuchaytiradi. O`quvchilarning estetik tomondan rivojlanishiga imkon beradi.

Asar birinchi marta o`qilgandan so`ng o`tkaziladigan suhbat, birinchidan, o`quvchilarga qanday ta'sir etganini bilish, ikkinchidan, bolalarni matnni tahlil qilishga qiziqtirish bilan darsda faol ishlashga sharoit yaratish maqsadini ko`zda tutadi. O`qituvchi o`quvchilarga asar haqidagi umumiy taassurotlarini aytishni talab qiladigan bir necha savol beradi. Masalan, 1) hikoyaning qaysi o`rni sizga yoqdi (hikoyaning qaysi qismini siz ko`proq esda saqlab qoldingiz? nima uchun? Hikoyani eshitib qaysi tasvirni siz aniqroq ko`z oldingizga keltirdingiz?) 2) qahramonmlardan qaysi biri sizga yoqdi? Ishtirokchilardan qaysi birining xatt – harakatiga qo`shilmaysiz? 3)Hikoya o`qilganda siz qaysi o`rinda juda xursand (yoki xafa) bo`ldingiz? kabi.

Boshlang`ich sinflarda to`g`ri, tez, ongli va ifodali o`qishga o`rgatish vazifasi o`quvchilarda asarni tahlil qilish ko`nikmasini shakllantirish bilan birga amalga oshiriladi. O`qish malakalarini shakllantirish bilan matn ustida ishlashning o`zaro bog`liqligi asarni tahlil qilishga qanday yondashishni belgilab beradi. Asarni tahlil qilishning metodik qoidasi asar mazmunini uning tasviriy – ifodali vositalari bilan bog`liq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida

asar ustida ishnlash jarayonida ta'lim – tarbiyaviy vazifalarni kompleks ravishda amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustida ishlashning asosiy yo`nalishini belgilaydi, shuningdek matnni tahlil qilish jarayonida o`quvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun o`quvchilarga beriladigan savollarning harakterini aniqlab olishga yordam beradi.

Matnni tahlil qilishning asosiy yo`nalishi asarning aniq mazmuni (voqealar va syujetning rivojlanishi ) ni kompozitsiyasini, ishtirok etuvchi shaxslarning axloqi va harakterli xususiyatlarini asarning g`oyasini aniqlash hisoblanadi.

Maktab tajribasida asarni tahlil qilishni “Asarda kim haqida hikoya qilinadi? ” yoki “Hikoyada qatnashuvchi shaxslarni ayting”, “Muallif nima haqida hikoya qilganini qisqacha ayting” kabi savol va topshiriqlar bilan boshlash maqsadga muvofiq deb topiladi. Masalan, bolalar I.Muslimning “Jonkuyar bola” (1 -sinf) hikoyasini eshitganlaridan so`ng, o`qituvchining yuqoridagi savollariga javob berib, hikoyada qatnashuvchi shaxslar Zokir, qosim va brigadier Ismoil aka ekanini aytadilar va Zokir bilan qosim paxta maydoniga suv toshib ketayotganini ko`rib qolishganini, Zokir yugurib shiponga borib Ismoil akaga aytganini, Ismoil aka uch, to`rt odam bilan kelib suvni bekitganini kollektiv ravishdea aniqlaydilar. Agar o`quvchilar hikoyanoing asosiy syujet chizig`ini belgilab ayta olmasalar topshiriq asar qayta o`qilgandan so`ng va mazmun yuzasidan suhbat jarayonida bajariladi.

Tahlil jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

**Tanlab o`qish.** Bunda o`quvchi matnni berilgan vazifaga mos qismini o`qiydi. Vazifa asarning faktik mazmunini oydinlashtirish. Sabab – natija bog`lanishini belgilash, badiiy xususiyatlarini ochish, o`qilgan matnga o`z shaxsiy munosabatini ifodalashdan ibrat bo`lishi mumkin. Masalan, N.Fozilovning “Yaxshi bo`ldi” hikoyasidan “Sayfining Iso boboga yordam erishi tasvirlangan o`rnini o`qing. Yaxshi bola haqidagi fikrni matn so`zlari bilan tasdiqlang. Matndan Husni va g`anining noqulay ahvolda qolganligini tasvirlangan o`rnini o`qing. Bolalarning ishlarini Iso bobo ma'qullaganini muallifning qaysi so`zlaridan bilib oldigiz?”

Tanlab o`qishdan matn ustida ishlashning barcha bosqichlarida har xil qiyinlikda foydalaniladi. Eng oddiy tanlab o`qish uchun “qizilqum cho`li tasvirlangan o`rinlarni topib o`qing” murakkab topshiriq sifatida berilishi mumkin. Tanlab o`qishning yana ham murakkabroq turi matndan sabab – natija munosabati bilan bog`langan faktlarni taqqoslashni, umumlashtirishni talab qiladigan o`rinlarni topib o`qish hisoblanadi. Bunda o`quvchi biror qatnashuvchi shaxs o`zini qanday tutishini, nima uchun u shunday tutishini tasdiqlash uchun matndan material tanlab o`qiydi.

Tanlab o`qish ongli va ifodali o`qish malakasini shakllantirishni matn ustida ishlash ko`nikmasini shakllantirish bilan birga qo`shib olib borishga, bolalarning ijodiy tasavvurini, nutqi va zehnini o`stirishga imkon beradi, shuning uchun undan o`qish darslarida keng

foydalanadi. Tanlab o`qish matn planini tuzishda (matn qismiga, uning mazmunini ifodalaydigan gapni, ya'ni reja qismini topishda), qahramonga harakteristika berish (matndan qahramonnig muayyan bir xususiyatini, harakatini tavsiflovchi materialni tanlash) da, asar g`oyasini aniqlashda tadbiq etiladi.

Matn ustida ishlashda keng tarqalgan ish turlaridan biri berilgan savolga o`z so`zi bilan javob berishdir. Mashqning bu turi o`quvchilarda o`qilganlar yuzasidan muhokama yuritish ko`nikmasini o`stirishga, qatnashuvchi shaxslarni baholashga, muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan asar g`oyasi o`rtasidagi bog`lanishni aniqlashga imkon beradi. Savollar ma'lum maqsadga yo`naltirilgan va muayyan izchillikda bo`lishi zarur. Matn ustida ishlashda matn mazmunini qayta hikoyalashni talab qilinadigan savollar beriladi. Agar o`qituvchi asar g`oyasini tushinishda o`quvchilarga yordam berishni ko`zda tutsa, savol sabab – natija tarzida bo`ladi.

O`quvchilarni savol berishga o`rgatish bilan matn ustida ishlashda yaxshi natijaga erishiladi. K.D.Ushinskiy o`z asarlarida bolalarni savol berishga o`rgatish muhimligini ta'kidlab, agar o`qituvchi savolni to`g`rib era olsa, javobning yarmi tayyor bo`ladi deb uqtiradi.

O`quvchilarni ongli ravishda savol tuzishga o`rgatish uchun o`qituvchi matnga o`zi tuzgan yoki o`qish kitoboda berilgan savollarni tahlil qiladi;tahlil uchun “Nega u yoki bu savol qo`yilgan, unda kim yoki nuima haqida gap boradi, savol ko`proq qaysi so`zlar bilan boshlanadi, qaysi savollar qiziqarliroq, qiyinroq?” kabi savollarni ishlatadi va matndan foydalanilgan holda bu savollarga qanday jovob berishni o`rgatadi. Ikkinchidan, o`qituvchi o`quvchilar etiborini matnga savol tuzish yo`liga qaratadi va savol tuzishdan oldin matnni diqqat bilan o`qish, qatnashuvchi shaxslarni ko`rsatish, savol tuziladigan qismi ajratish kerakligini tushintiradi. Savol tuzishga o`rgatishninbg boshlang`ich bosqichida bu mashq jamoa bo`lib bajariladi va ta'limiy harakterda bo`ladi; buning uchun qulayroq savol ajratilib, nima uchun u qulay, qiziqarli ekani yoki, aksincha, noqulay bo`lsa, nega noqulayligi tuishintiriladi. Shundan so`ng o`quvchilarga savol tuzib yozib kelish uyga vazifa sifatida topshiriladi. Savol tuzish o`quvchilardan asar mazmuni bilan puxta tanishishni talab qiladi, ongli o`qish malakasini o`stiradi, uy vazifasini tekshirishda faollikni ta'minlaydi.

Matnni tasvirlash matn ustida ishlashda katta ahamiyatga ega bo`lib, o`quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, undan to`g`ri foydalanish esa asarda yozuvchi tasvirlagan hayotiy manzaralarni o`quvchilar aniq tasavvur qilishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Matn ikki xil tasvirlanadi: 1) so`z bilan tasvirlash; 2) grafik tasvirlash.

So`z bilan tasvirlash o`ziga xos murakkab ish turi bo`lib, unda manzarani so`z yordamida aniq qayta tiklash talab qilinadi. So`z bilan tasvirlash, shuningdek, grafik tasvirlash uchun ham o`quvchi matnni, undagi voqea sodir bo`lgan vaziyatni, qatnashuvchi shaxslarning tashqi

ko`rinishini, xarakterli xususiyatlarini yaxshi bilishi zarur; so`z bilan tasvirlash so`zni aniq tanlashni talab qilib, o`quvchilar nutqini rivojlantirishda foydali vositalardan biri hisoblanadi.

Tasvirlashdan o`qituvchi turli maqsadlarda, chunonchi reja tuzishga asos sifatida, qayta hikoyalshga tayyorlash, voqea yuz bergan sharoitni aniqlash maqsadida foydalanishi mumkin. Tasvirlashdan mustaqil ish sifatida ham foydalaniladi: o`qituvchi matnning ma'lum qismidan o`quvchilarga juda ma'qul bo`lgan manzarani so`z bilan yoki grafik tasvirlashni va unga muallif so`zini tanlashni topshiradi.

O`quvchilar qayta hikoyalashdan oldin so`z bilan tasvirlash uchun matnni o`qiydilar, nisbiy tugallangan qismlarni ajratadilar, lavhalarni tartib bilan tasvirlaydilar. Bu muallif nima yozganini ko`z oldiga keltirishga imkon beradi. Shundan keyin matnni qayta hikoyalash uchun leksik – stilistik tayyorgarlik o`tkaziladi.

Matnni tasvirlashga o`rgatishni kitobda berilgan rasmni matnning shu mrasmga mos qismiga taqqoslashdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bunday o`quvchilar yozuvchi tasvirlagan qahramondagi yoki tabiatdagi xarakterli tomonlarini rassom rasmda ko`rsata olganiga ishonch hosil qiladilar.

So`z bilan tasvirlash qayta hikoyalashga aylanib qolmasligi zarur. Buning uchun muallif matnn leksik – stilistik tomondan tahlil qilish manzarani tasvirlashda so`zni aniq tanlashga yordam beradi. Tahlil jarayonida o`qituvchi o`quvchilar e'tiborini muallif ishlatgan so`z va so`z birikmalariga jalb qiladi.

Grafik tasvirlash ko`proq uyda bajariladi. Buning uchun o`quvchilar tasvirlaydigan matn qismini ajratadilar, uni diqqat bilan qayta o`qib, mazmunini o`zlashtiradilar va unga mos rasm chizadilar. Darsda o`quvchilar chizgan rasmlarga qarab tanlab o`qish o`tkaziladi.

Matn yuzasidan grafik tasvirlashning murakkabroq turi ekranlashtirish (ekranda ko`rsatishga moslash) hisoblanadi. Bu ijodiy ish bo`lib, rasmlar matnga uyg`unlashtiriladi. Buning uchun asar syujetining rivojlanishiga moslab muayyan izchillikda rasmlar seriyasi yaratiladi. Ekranlashtirishda jamoa bo`lib ishlanadi. Kadrlar, ularga mos yozuvlar va musiqa birgalikda tanlanadi.

Asar rejasini tuzishning mazmunini ongli va chuqur tushinish uchun xizmat qiladi. Reja matndagi asosiy fikrini ajratishda voqealarni izchilligini belgilashda, matn qismlarining o`zaro bog`lanishini tushinishda o`quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o`quvchilar nutqi va tafakkurini o`stiradi, ular matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo`lishga, har bir qismning asosini topishga, uni qisqa va aniq sarlavha tarzida yoki reja qismi sifatida shakllantirishga o`rganadilar.

Reja tuzishga tayyorgarlik ishi savod o`rgatish savod davridanoq boshlanadi. Tayyorgarlik mashqining eng oddiy turi berilgan sarlavhalardan kichik matn mazmmuniga

mosini topib qo`yish hisoblanadi. O`quvchilar kichik matnga sarlavhani o`zlari topib qo`ya olsalar yana ham yaxshi. Bunday mashqqa o`rgatishda o`qituvchi sarlavha asosiy fikrni iofodalashni takidlaydi, bolalar topgan sarlavhani tahlil qilib, u yoki bu sarloavha nima uchun mos yoki mos emasligini tushintiradi. Reja tuzishga tayyorgarlik ishining 2 – turi o`qituvchi rahbarligida tanlab o`qish hisoblanadi. Bolalar matndan o`qituvchi bergan savolga javob bo`ladigan o`rinni topib o`qiydilar.

Reja tuzish osondan qiyinga prinsip asosda asta murakkablashtirilib, 1 – sinfdan boshlab muayyan izchillikda o`tkazib boriladi. Boshlang`ich sinflar ona tili dasturiga ko`ra 1 – sinf o`quvchilari o`qilgan kichik matnga o`qituvchi rahbarligida so`roq gap tarzida sarlavha tanlash; 2 – sinfda kichik maqolaning rejasini o`qituvchi rahbarligida so`roq yoki darak gaplar tarzida tuzish; keyin hikoya rejasini jamoa ravishda tuzish; 3 – sinfda o`qilgan matn rejasini avval jamoa bo`lib, keyin mustaqil tuzishga o`rgatiladi.

Rejaning eng oddiy shakli rasmli reja hisoblanadi. Buning uchun avval bolalar kitobda berilgan rasmlardan matn qismiga mosini tanlashda va uni nomlash (sarlavha qo`yish)ga o`rgatiladi; keyin matn qismiga tayyor rasm berilmaydi, uni bolalarning o`zlari so`z bilan tasvirlaydilar;  hikoya o`qiladi va qismlari bo`yicha tahlil qilinadi, so`ng o`quvchilar matning birinchi qismini o`qiydilar, o`qituvchi ulardan qanday rasm chizishlarini so`raydi, ular javob beradilar, keyin rasm chizib, ularni nomlaydilar, ya'ni matn qismiga sarlavha topadilar; keyin matnning ikkinchi qismini o`qiydilar, uni so`z bilan tasvirlaydilar, unga nom qo`yadilar v.h. O`qituvchi sarlavhalarni reja asosida doskaga yozib boradi.

O`quvchilar rasmli reja tuzishdan logik reja tuzishga o`tadilar. Logik reja tuzish quyidagi izchillikda o`tkaziladi:

1. O`qituvchi qismlarga bo`lingan matn tanlab, rejani tuzadi va matnga reja qismlari o`rnini almashtirib, sarlavha tarzida doskaning chap tomoniga yozib qo`yadi. O`quvchilar matnning birinchi qismini o`qiydilar, shu qism mazmuniga mos sarlavhani doskadan tanlaydilar, uni o`qituvchi doskaning o`ng tomoniga yozadi; keyin o`quvchilar matnning ikkinchi qismini o`qib, tegishli sarlavhani doskadan tanlaydilar v.h. Shunday qilib, doskada o`qilgan matnning rejasi hosil bo`ladi.

2. Matn qismlarini tahlil qilish jarayonida o`qituvchi rahbarligida har bir qismdagi asosiy fikrni aniqlaydilar va unga sarlavha topadilar. O`qituvchi sarlavhalarni reja qismi tarzida doskaga yozib boradi.

3. qismlarga bo`linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar matn rejasi tartibida doskaga yoziladi. O`quvchilarga berilgan sarlavhalardan foydalanib matnni qismlarga bo`lish topshiriladi. Ular matni o`qiydilar, birinchi sarlavhaga tegishli qismni ajratadilar, keyingi qismlar ham shunday belgilanadi.

4. qismlarga bo`linmagan matn tanlanadi. Sarlavhalar aralash tarzda doskaga yoziladi. O`quvchilarga yuqoridagi qismlarga bo`lish topshiriladi. O`quvchilar matnni o`qib, nisbiy tugallangan qismni ajratadilar va unga mos sarlavhani doskadan tanlaydilar. Ish shu tarzda davom ettirilib, matn rejasi tuziladi.

O`quvchilar asarni mustaqil ravishda qismlarga bo`lish va har bir qismga sarlavha topishga, ya'ni berilgan matn rejasini tuzishga yuqoridagi kabi asta – sekin o`rgatib boriladi. Reja tuzish uchun so`roq va darak gaplardan, ayrim hollarda atov gapdan foydalanish mumkin. Faqat har bir rejada bir turdagi gaplar ishlatilishi zarur.

Shunday qilib, o`quvchilarda matn ustida ishlash ko`nikmasini shakllantirishda ular diqqati ishning mazmuni va bajarilish yo`llariga qaratiladi.

Mustaqil ish mashqning faol turi bo`lib, uni bajarish jarayonida o`qituvchining yordami cheklanadi va o`quvchining bajarishi uchun muayyan vaqt ajratish talab etiladi. Shuning uchun bir vaqtning o`zida iki yoki uch sinf bilan ishlanadigan oz komplekli maktablarda mustaqil ish juda zarur va katta ahamiyatga ega bo`lgan mashq turi hisoblanadi. O`qish darslarida mustaqil ishni bajarishda bolalar taxminiy tayorlanadi. O`quvchilarni mustaqil ishga tayyorlashga mashqning maqsadini ularga qisqa va aniq tushintiriladi. Mustaqil ish uchun tanlangan matnning hajmi kichik va o`quvchilar saviyasiga mos bo`lishi lozim. Mustaqil ishning turi har xil bo`lib, uni tanlashda o`quvchilarning tayyorgarligi, o`qiladigan matnning xarakteri, asarni o`rganish bosqchi hisobga olinadi.

Boshlang`ich sinflarning o`qish darslarida mustaqil ishning quyidagi turlaridan foydalanadi:

1. Asarni ichda o`qish. 1 – sinfda bu mashqni topshirishdan oldin ayrim so`zlarni kesma harflar bilan yozdirish va uni o`qitish maqsadga muvofiq. O`quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab ichda o`qib, ayrim qatnashuvchi shaxslarning gaplarini topish, uni o`qish va o`z so`zi bilan gapirib berish, matndan o`qituvchi bergan savolga javob bo`ladigan o`rnini topish kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

2. O`qilgan matnga oid savolga javob berish. Bu mashq bolalarni diqqat – e'tabor bilan o`qishga o`rgatadi; bu ish turidan oz komplektli maktablarda foydalanish dars tartibini belgilashga ham yordam beradi. Mashqning bu turi asta murakkablashtira boriladi: avval o`quvchilar matnga oid savollarga javob berish bilan uning mazmunini o`zlashtirsalar,keyin asarning asosiy g`oyasini bilib oladilar, voqea hodisalar o`rtasidagi sabab – natija bog`lanishlarini tushintiradilar. Bunda nega? nima uchun? savollaridan foydalaniladi.

3. O`qilgan asar mazmuni to`liq anglash, bilib olish uchun o`qituvchi topshirig`ini bajarish. Masalan, topshiriqlar quyidagicha bo`lishi mumkin: 1. O`qing va Rustamjonning xatosi nima ekanligini aytib bering. ("Rustamjonning xatosi" 2 - sinf) 2. O`qing va nima uchun qishki

saroyni olish qiyin bo`lganini aytib bering (“qishki saroyga hujum” 3-sinf) Ba'zan topshiriqlar turli xildagi qayta hikoyalashni talab qiladi: 1) matnning ayrim o`rinlaridan foydalanib qayta hikoyalash; 2) hikoyani bir suyujet chizig`i asosida qayta hikoyalash; 3) matnni qisqartirib hikoyalash; 4) matnning shaxsini o`zgartirib, qayta hikoyalash.

4. Mustaqil ishning juda ko`p turi o`qilgan matn rejasini tuzishga tayyorlanish va reja tuzish bilan bog`lanadi: 1) o`qilgan asarga oid rasm chizish; 2) rasmga matndagi so`zlar yoki o`z so`zi bilan sarlavha qo`yish; 3) o`qituvchi tartibsiz bergan savollardan foydalanib reja tuzish; 4) matnni qismlarga bo`lish va har bir qismga sarlavha qo`yish v.h.

Mustaqil ishning qanday bajarilganligini hisobga olish o`quvchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlashda va keyingi bosqichlarda mustaqil mashqni to`g`ri tashkil qilish uchun material tanlashda o`qituvchiga yordam beradi.

### 1.3. Ta'limning yangi modellarida ta'lim mazmunini uyg`unlashtirish imkoniyatlari mazmunini aniklash strategiyasi

«2004 – 2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» demokratik modelga asoslanganukuv – bilim jarayonini tatbik kilishni takozo kilmokda. Fakatgina maxsuldor reproduktiv metod va usullarning uygunlashtirilishi natijasidagina ukvchilar ukuv – bilim jarayonida ta'lim mazmunining asosi negizini samarali uzlashtirish imkoniyatiga ega buladilar. Ta'lim mazmunining maksimum darajasida mujassamlashtirilgan bilimlar esa ukuvchining muntazam rivojlanishiga yordam beradi. Shuning uchun xam darsliklarda takdim etilgan mashk, masalalar, savol va topshiriklarda reproduktiv, maxsuldor metodlar xamda usullar uzviy alokadorlikda tatbik etilishi lozim.

Biz sunngi paaytlarda induktiv darslik yoki dedukdiv darslik atamalariga tez – tez duch kelmokdamizki, bu muammoga ilmiy yondashiladigan bulsa, aloxida tarzda induktiv darslik , reproduktiv yoki maxsuldor darslik bulmasligini kuzatish va taxlillar yakkol kursatmokda.

Istikbolda ta'lim mazmunini prognozlash natijalari shuni kursatadiki, darsliklar yaratish nazariyasi soxasidagi kupgina izlanishlarimiz yukorida kursatilgan tarzda darsliklarni tasniflash mumkin emasligini asoslash imkonini berdi. Bir – birini takozo kiluvchi bunday metodlar asosida turli mantikiy operatsiyalarni ta'lim jarayonida bajartirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa ta'limning demokrativ modelini tatbik etishning eng asosiy shartidir. Natijada ukvchini intellektual rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi.

Induktiv maxsuldor deduktiv dastur darslik yoki mashgulotlar tarzida ukuv jarayoni uning mazmunini tasniflash istikbolda ta'limning demokratik modelini yaratishga tukinlik kiladi. Ukuvchi shaxsini tugri rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini xisobga olmaslik, anikrogi uni

bilmaslik natijasida kelib chikkan bir tomonlama yondashuv maxsuli ukuvchi shaxsi notugri rivojlanadi.

Ukuv – bilim jarayoni ukuvchiga ta'lim berish xarakatlari asosan ukuv materiallarining kurilishdan kelib chikkan xolda amalga oshiriladi. Bunda uzlashtirilgan materillariga bilimldarning Yangi darajalari nuktai nazaridan yondashish imkoniyatlari xam mavjud. Shunga kura ukuvchilarga ukuv jarayonining maksadidan kelib chikkan xolda tabakalashtirilgan savol va topshiriklar takdim kilinishi ulardagi gender tenglik va gender farklarga rioya etilishi lozim.

Bugungi kunda didaktik jixatdan katta samara berayotgan usullardan Yana biri – sinf axli yoki aloxida tanlab olingan ukvuchilar guruxning aloxida – aloxida ish turlari yoki individual topshiriklar bilan band kilinishi Bilan boglik xarakatlardir.

Bu birinchidan ta'lim jarayonida ukuvchini uzluksiz rivojlantirishni ta'minlaydi. Bu pedagogik tadbir esa, ukuvchilarning olga xarakat kilishiga imkoniyat yaratadi. Ular ta'lim jarayonida faoliyatning turli kirralarini egallaydilar. Chunki bu jarayonda ukuvchi boskichma – boskich individual faoliyat kursatishga odatlanib boradi. Shuni xam aloxida ta'kidlash kerakki, xakr bir ukuv sinf – gurux xamda yakka tartibda ukuv faoliyatining uzaro uygunlashuvi natijasidagina katta – kichik ukuvchilar guruxida ukuv – biluv faoliyatining muvoffakiyatini ta'minlash mumkin. Turli ish turlarini uygunlashtirish orkali ukuvchilarda intellektual kunikmalarni shakllantirish kuzda tutiladi. Bunda turli ukuv predmedlari doirasida ukuv fanining xususiy maksa dva vazifalaridan kelib chikkan xolda yondashiladi. Bu jarayonda ukuvchining intellektual tarakkiyotini ta'minlovchi asosiy vosita sifatida ukuv yuklamasi, ya'ni ta'lim mazmuni nomoyon buladi. Zamonaviy darsliklarda bu uziga xos didaktik vositalar – mutakil ish turlari, individual ishlash uchun mashk va topshiriklar tarzida takdim kilinadi xamda butun gurux bulib ishlashga muljallangan ukuv materillari xam shu siraga kiradi.

Ukuv – biluv jarayonidagi psixologik kulaylikning uziga xosligini tashkil etilishi nazarda tutiladigan ukuv jarayonini uziga xosligini xam ifodalaydi. Ukuvchilar xamkorlik sharoitida bir xil sabab, birgalikda ijod kilish, ularning salomatligiga muntazam e'tibor karatish xamda ruxiy xolatini nazorat kilib bornishni takozo etmokda. Bunday uziga xoslikni ta'minlash uchun ukuv – biluv jarayoni kuydagi tamoyillarga asoslangan xolda tashkil etilishi kerak:

a) xar bir ukuvchining umumiy rivojlanishini ta'minlash ;

b) ukuv jarayonida pedagogik – psixologik kulaylikka ega bulish ;

v) ukuv – biluv vaziyatida xar ukuvchining irndividual xususiyatlari, imkoniyat va extiyojlarini xisobga olishga karatilgan va xakazo.

Bular uz navbatida ukuv jarayonida psixologik xamda didaktik kulaylikni ta'minlaydi xamda xar bir ukuvchining uzluksiz rivojlanishi uchun kulay muxitni vujudga keltiradi.

Ukuvchi shaxsining uzluksiz rivojlanishi uchun ukuv – biluv jarayonida psixologik kulaylikning vujudga kelishi uning pedagogik jixatdan kullab kuvvatlanganligiga boglik. Shuningdek ta'lim mazmunining integral xarakterga ega bulishi xam ukuvchilarning bilim sifatini oshirish, ularning vakti va kuchini tejash uchun muxim axamiyatga ega. Ukuv kurslari mazmunini integratsiyalash natijasida Yangi uygunlashgan ukuv kursi vujudga keladi. Shuning uchun xam bunday ukuv fanlari mazmunini uzlashtirish ukuvchilar uchun bir kadar kulay xisoblanadi. Chunki ukuvchilar ularni urab turgan moddiy borlikni uygun yaxlit tarzda idrok etadilar. Shunga kura xam turli ukuv predmetlari tarkibida takdim etilgan ukuv materillarini yaxlit tarzda ukuvchiga etkazish pedagogik jixatdan kulaydir. Ukuv materillari ukuvchilarga dunyoni yaxlit idrok etish kunikmasini shakllantirishga xizmat kilmogi kerak.

Ukuv materillari ukuvchilarga olamning barkarorligi, muayyan konuniyatlarga asoslangan rivojlanishi xakida bilim, tushuncha va ma'lumotlarni uygun tarzda etkazishga yunaltirmogi lozim. Bunda badiy adabiyot namunalari, axborotli matnlarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish maksadga muvofikdir.

Bu o`rinda o`qituvchi she'rning mazmuniga aloqador quyidagi ma'lumotlarni keltirsa, dars yanada qiziqarli va samaradorli bo`lishi mumkin.

Ko`ramizki, "qorbobo" she'ri diolig formasida yozilgan bo`lib, shoir unda sizlarning tengdoshlaringiz, ya'ni yirik qahramonning harakterini juda ustalik va katta mahorat bilan ochib beradi. Diqqat qiling-a, she'rda ayasining so`ziga kirmagan, dars tayyorlash o`rniga eshikka chiqib ketgan va qattiq sovuqqa duch kelgan bolakay holati tasvirlanadi:

Onam dedi: - darsingni o`qi!
Eshik sovuq chiqmagin zinhor!
Unamasdan chiqib ketdim men.
G`ijirlardi bosganimda qor.
Ammo tezda quloq, burnimni
Kimdir birov chimchilab oldi.
Ko`zlarimga yosh chiqib, yuzim
quloq, burnim achishib qoldi.

Shoir qahramoni anashu holatda nihoyatda sovuqda qolib, yana uyga qaytadi, lekin nega bunday jazo olganini, nega sovuq eganini, kim uning qulog`ini chimchilab olganini bilmay onasidan so`raydi. Shunda onasi quyidagicha javob beradi:

"Dars tayyorla, eshikka chiqma"-
Dedim quloq solmading menga,
Shu gunohing uchun qorbobo

Yaxshi jazo beribdi senga.

Bir tomondan onaning ta'rifi, ikkinchi tomondan onasining gapiga kirmagani uchun qorboboning bergan jazosi bolaga ta'sir etadi va qunt bilan dars tayyorlashga beriladi. Ushbu she'rda qorbobo bola uchun ikki vazifani bajaradi:

Bir tomondan onaning so`ziga kirmagan lirik qahramonni jazolasa, ikkinchi tomondan, eshikka chiqmay dars tayyorlagan bolaga “Ko`p ajoyib gullar solib” derazasini bezab ketadi.

Derazaga bu ajoyib gullarni kim solganini bilmay bola hayron bo`ladi.

Onam dedi: - Darsingni o`qib,
quloq solding so`zimga butkul
Shu sababdan qorbobo sendan
Xursand bo`lib solib ketdi gul.

She'r qahramoni – ya'ni bolakay onasining so`ziga kirmay qorbobodan olgan jazosiga afsuslansa, endi derazaga solib ketgan gullarni ko`rin, qorbobodan mamnun bo`ladi. Shoir ana shu kichik she'ridayoq o`z qahramonining psixologiyasidagi kontrakt xususiyatlarni ustalik bilan ko`rsata oladi.

Shundan so`ng o`qituvchi she'rning mazmuni haqida o`quvchilar bilan quyidagich suxbat o`tkazadi:

O`qituvchi: - Onasining gapiga quloq solmay qishda tashqariga chiqqan bola qanday holga tushadi?

O`quvchi: - qishning izg`irin sovug`I bolaga ta'sir qiladi.

Qattiq sovuqdan bolaning ko`zlaridan yosh chiqib ketadi, quloq-burni achishadi. Paltosining qunduz yoqasi oppoq bo`lib qoladi.

O`qituvchi: - Juda yaxshi. Bolaning yuzlariga, barmoqlariga ham sovuq igna sanchadimi?

O`quvchi: - Ha, sovuqdan kipriklarida ham ikki tomchi yosh yaltiraydi.

O`qituvchi: - Barakalla! So`ng bola nima qiladi?

O`quvhci: - Undan so`ng sovuqdan qaltirab, issiq uyga qochib kiradi va onasiga bu ahvolni aytib beradi.

O`qituvchi: - Mana ko`rdigizmi o`quvchilar, onasining gapiga quloq solmagan bolaning ahvoli. U tashqariga o`zboshimchalik bilan chiqib ancha azoblanadi… Shuning uchun hamma vaqt ota-onalarning gapini tinglash lozim, kattalar aytgan ishni bajarish kerak.

O`qituvchi she'rning boshqa satrlarini o`quvchilarga navbat bilan o`qitib, uning mazmuni haqida turli usullarda suxbat olib boradi. O`qituvchi she'r haqidagi suxbatni davom ettiradi:

O`qituvchi: - Bolaning savollariga onasi nioma deb javob beradi?

O`quvchi: - Onasining aytishi bo`yicha bola tashqarida qorboboga duch keladi.

Onasining gapiga quloq solmay, gunoh qilgani uchun qorbobo bolaga sovuq ignalari bilan jazo beradi…

O`qituvchi: - Onasining so`zini tinglagan bolada qanday o`zgarishlar yuz beradi?

O`quvchi: - Onasining nasihatlatini olgan bola tashqariga behuda chiqmay, uyda dars tayyorlaydi, kitobdan bahra oladi…

Sinfda she'rning "bir chog` bunday ko`zimni solsam" misrasidan boshlab to ohirgi satrlarigacha ishida o`qib, mazmunini so`zlashga tayyorlanishi mustaqil topshiriq qilib beriladi.

O`quvchilar ichda o`qiydilar, mazmunini aytishga tayyorlanadilar.

O`qituvchi ko`rsatmasi bilan 2-3 o`quvhciga she'rning mazmunini so`zlatiladi. Uyga darslikda berilgan savol va topshiriqqa tayyorlanib kelish vazifa qilib topshiriladi. Uyg`unning "g`alaba bahori" she'rini o`rganishda Vatan urushuning g`alabasini tasvirlovchi biror parchani o`quvchilarga ko`rsatib, uni mazmunin aytib, bugungi o`tiladigan dars mavzusiga bog`lanadi. Oldingi mashg`ulotlarda badiiy asarlarni o`qish texnikasi o`quvchilarga o`rgatilganligi va she'rlar bir necha bor ifodali o`qib berilganligi uchun bu she'rni o`qituvchining o`zi o`qib berishi shart emas. O`qituvchi she'r yozilgan jadvalni doskaga iladi. She'rni avval yaxshi o`qiydigan o`quvchi o`qiydi. So`ngra 4 o`quvchi doskaga chaqiriladi: Birinchi bandini bir o`quvchi, ikkinchi bandini yana bir o`quvchi, uchunchi bandini uchunchi o`quvchi, to`rtinchi bandini yana bir o`quvchi ifodali o`qiydi. So`ngra to`rttala o`quvchining ovozi baravarlashtirilib, 4 band ham qund bilab o`qitiladi. Bu – usul o`quvchilarning qiziqishini orttiradi va o`qish jarayoniga hayajon kiritadi. She'rdagi quyidagi so`zlarga izoh berilishi mumkin:

Koinot, soy, ellar, nasllar, aymoqlar, lochinlar, yov, g`olib.

Shuningdek, "Ulug` Vatan", "Go`zal tabiat", "Huquq olgan" kabi ibora – birikmalarining o`ziga xos ma'nosi ham tushuntirilsa foydadan holi bo`lmaydi. Bu so`z iboralar haqida fikr bayon qilish o`qituvchi kelgusi sinflarda o`tiladigan obrazli ifodalarni o`rganishga o`quvchini tayyorlaydi. She'r ifodali o`qilgach, matn ustida ishlash mana bunday usulda olib boriladi:

O`qituvchi: - Vatan, tabiat nima uchun o`ziga oro beradi?

O`quvchi: - Vatan urushi yillarida

Daraxt butoqlariga yashirinadi.O`qituvchi: - To`g`ri aytding. quyosh eru-ko`kni qizdiradi. Demak yozda havo juda isib ketadi. Hatto qurt-qumursqa va barcha jonivorlar ham salqin erni axtarishadi…

Yozda odamlar nima ish qilishadi? – deb o`qituvchi o`rtaga yana savol tashlaydi. O`quvchilar javob beradilar:

Kolxozchilar issiqda ham paxtazorda ishlashadi. Dehqonlar dalada ekinlarni o`radilar.

O`qituvchi: - Bu haqda yana kim gapiradi?

O`quvchi: - Mevalar pisha boshlaydi, bundan kolxozshilar sevinishadi.

O`qituvchi: - Bu faslda chillakilar ham sharbatga to`ladi, "chillaki: deb uzumning bir xil naviga aytiladi. Demak, yozdaqushlar bolalarini uchirma qilar ekanlar, sahro-dashtlarda o`tlar sarg`aya boshlab, cho`pga aylanar ekan, yoshlar esa bu pallada suvda cho`milishar ekanlar, shundaymi bolalar?

Shundan so`ng o`qituvchi she'rni ichida mustaqil o`qishga topshiradi. Ma'lum vaqt o`tgandan so`ng, she'rni mazmuni so`zlatiladi. Darsni mustahkamlash va o`quvchilarning og`zaki hamda yozma nutqini oshirish maqsadida darslikda berilgan topshiriq asosida ijodiy ish olib boriladi. Uyga vazifa qilib "Yoz" she'rini yodlab kelish topshiriladi.

## 2.2. Uyg`un asarlarini sinfdan tashqari mashg`ulotlarda o`rganish

Maktabda o`quvchilarning bilim doiralarini kengaytirish, tasavvur va tafakkurlarini o`stirishva shakllantirishda badiiy adabiyotni, shu jumladan, lirik, lirik-epik va dramatik asarlarni sinfdan tashqari mashg`ulotlarda o`rganish g`oyat muhimdir. Sinfdan tashqari mashg`ulotlar maktab o`quvchilarining adabiyot faniga qiziqishlarini o`stiribgina qolmay, ularni o`zaro do`stlik, hamfikrlilik va ahillik, shuningdek, sadoqatlilik ruhida tarbiyalashga ham yordam beradi. Badiiy asarlarni sinfdan tashqari mashg`ulotlarda o`rganishning o`ziga xos xususiyatlari mavjud. Yuqori sinflarda adabiyot o`qituvchisi, quyi sinflarda esa boshlang`ich sinf muallimi sinfdan tashqari ijodiy tadbirlarni o`tkazishdan oldin unga puxta tayyorgarlik ko`rishi, o`quvchilarni bunga asta-sekin tayyorlab borish lozim.

O`qituvchi ijodiy ishlarni yig`ilishda muhokamadan o`tkazadi. Sinfdan tashqari o`qish uchun biror shoir yoki yozuvchining badiiy asari tanlanganda eng avvalo bolalarning yoshi, bilim saviyasi hisobga olinadi. Boshlang`ich sinf dasturida 1-sinfda sinfdan tashqari o`qish haqida muhim fikrlar aytilgan.

O`quvchilarning tovush chiqarib o`qishlari uchun badiiy adabiyotlardan namunalar, ertaklar, she'rlar, hikoyalar, topishmoqlar tanlanadi va ifodali, ongli va ravon o`qishga o`rgatiladi. Bulardan tashqari eshitganlarini hikoya qilib berish hamda asarga nisbatan munosabatlarini bildirish ham talab qilinadi. Dastur ko`rsatmasiga muvofiq 1-sinflarda sinfdan tashqari mashg`ulot har haftada bir marta o`tkaziladi va bunga savod o`rgatish darslaridan 20 minut ajratiladi.

Bu sinfda Uyg`un asarlari bo`yicha sinfdan tashqari o`qish tashkil etilganda, albatta, o`quvchilarning to`g`ri, tez, ongli va ifodali o`qishlariga e'tiborni oshirish lozim. Bu sinfda Uyg`unning bolalarga bag`ishlangan "qor yoqqanda qorbobo", "qushlar uchib ketdingiz" kabi she'rlari yuzasida sinfdan tashqari o`qish tashkil etish va bu jarayonda o`quvchilarni to`g`ri, tez, ongli va ifodali o`qishiga diqqat qilish kerak.

2-sinflarda Uyg`unning “Bog`da”, “Chegarachi”, “Bahor” she'rlarini yodlash uchun tavsiya etish mumkin. Bu sinfda adabiy matnni ovoz chiqarib, to`g`ri, ongli, tez va ifodali o`qish, ichida ham o`qish talab qilinadi. Shuningdek, Uyg`unning 2-3 she'ri matnining mazmuni so`zlab beriladi va janri aniqlanishi kerak.

3-sinfda esa Uyg`unning “g`uncha”, “Laylak”, “Bulbulcha”, “Boychechak”, “Kim bo`lasan” kabi she'rlari shuningdek, 4-sinfda “Kuz qo`shiqlari” kabi asarlari ustida sinfdan tashqari o`qish tashkil etish mumkin.

Quyida shoirning “Bulbulcha” va “Kuz qo`shiqlari” kabi she'rlarini sinfdan tashqari o`qish darsida o`rganish, ifodali o`qish mazmunini o`zlashtirishning ba'zi usullari haqida fikr-mulohazalarimizni bildiramiz va kuzatishlarimizni bayon qilamiz.

Dars mavzusi: Uyg`unning “Bulbulcha” she'ri.

Dars maqsadi: O`quvchilarga “Bulbulcha” she'rini o`rgatish.

qushlarni ehtiyotlash kerakligini o`quvchilarga tushuntirish.

Dars jihozi: Bulbulning rasmi.

Darsning borishi:

O`tilgan mavzuni mustahkamlash.

O`quvchilarni yangi mavzuni o`tishga tayyorlash, suxbat asosida quyidagi savollarni berish bilan darsni boshlaydi.

O`qituvchi: - Bolalar, qani, qanday qushlarni bilasizlar?

O`quvchi: - Chumchuq, bulbul, qaldirg`och va xokazolar.

O`qituvchi: - Yaxshi. Barcha qushlardan bulbul nimasi bilan ajralib turadi?

O`quvchi: - Bulbul o`zining yoqimli sayrashi bilan boshqa qushlardan ajralib turadi.

O`qituvchi: - To`g`ri. Bulbul jajjigina kulrang qush bo`lib, u eng yoqimli sayrashi bilan boshqa qushlardan ajralib turadi. “Bulbul navosi”, “Bulbuldek kuylaydi” deb eshitgan bo`lsalaring kerak. Bugun biz mana shu ajoyib qushchahaqida shoir uyg`unning “Bulbulcha” she'rini o`rganamiz.

O`qituvchi she'rni ifodali o`qib, mazmunini so`zlab beradi.

So`ngra ikkita o`quvchini doskaga chiqarib, ularga ikkala to`rtlik o`qitiladi:

1-o`quvchi: Jon bulbulim, bulbulim,
Bog`da ochilgan gulim,
Senga quchoq keraman,
Gullarimdan beraman.

2-o`quvchi:

Sen ham menga do`st bo`lib,
Atrofimda o`ynab yur,

Men darsimni tayyorlay,
Sen ashula qilib tur.

O`quvchilarni to`g`ri, tez, ongli va ifodali o`qishlarini o`qituvchi kuzatib boradi. O`qituvchi yangi mavzu bo`yicha o`quvchilar bilan savol-javob qiladi. So`ngra o`quvchilar jo`r qilib va yakka-yakka holda o`qitiladi. O`qituvchi dars ohirida “Bulbulcha” she'rini yod olishni uyga vazifa sifatida topshiradi va darsni yakunlaydi.

Shoir Uyg`unning “Kuz qo`shiqlari” lirik she'rini IV sinfda darsdan tashqari mashg`ulotlarda o`rgatiladi. Boshlang`ich sinf mashg`ulotlarida bu asarni o`rgatishga 2 soat vaqt ajratilgan. Dastur talabiga muvofiq she'rda kuz fasliga xos fazilatlarning tasvirlanishi, ushbu she'rning g`oyaviy-estetik mazmuni va uning tarbiyaviy ahamiyati haqida badiiy vositalar-obrazli poetik ifodalari xususida o`quvchilarga bilim va tushuncha berish lozim.

O`qituvchining o`zi mashg`ulotlarda she'riy parchalardan namunalar o`qiydi va mazmuniga o`quvchilarning diqqatini, qiziqish xavasini uyg`otadi.

Demak, o`qituvchi tomonidan yangi dars mavzusi haqida kirish so`zi uyushtiriladi. Bu kirish, albatta, mazmundor va muxtasar bo`lishi kerak.

“Kuz mashqlari she'rini o`rganishga” bag`ishlangan birinchi mashg`ulot quyidagicha olib borilishi mumkin:

Darsning mavzusi: - “Kuz mashqlari” she'rini g`oyaviy mazmuni, unda kuz faslining o`ziga xos fazilatlarining tasvirlanishi.

Darsning maqsadi: - O`quvchilarga kuz fasli haqida tushuncha berish, o`quvchilarni ravon, ongli va ifodali o`qishga o`rgatish hamda ularning og`zaki nutqini o`stirish.

Darsning jihozi: - Kuz fasliga oid manzaralar ifodalangan biror tasvir yoki surat.

Darsning borishi: - Mashg`ulot o`quvchilarning kirish suxbati bilan boshlanad.

O`qituvchi: - “Kuz qo`shiqlari” she'rini qaysi shoir yozgan, kim aytib beradi, - deb sinf o`quvchilariga murojjat etar ekan, ularning yangi mavzuga bo`lgan diqqat-e'tiborini jalb qilishga harakat qiladi. O`quvchilar “she'rni shoir Uyg`un yozgan” deb javob beradilar. Shunda o`qituvchi: - “To`g`ri, “Kuz qo`shiqlari” she'rini hurmatli shoirimiz Uyg`un yozgan. Mana shoirning surati”, deb doskaning o`rtasiga uning katta rasmini va ikki yonga esa she'r haqidagi ko`rgazmalarni iladi. Shundan so`ng o`qituvchining o`zi shoit haqida umumiy tushuncha beradi. O`qituvchining suxbati quyidagi reja asosida olib borilishi kerak:

Uyg`un haqida qisqacha ma'lumot.

Uyg`un ijodida tabiat tasviri.

“Kuz qo`shiqlari” she'rining g`oyaviy mazmuni, kuz faslining tasvirlanishi.

Lug`at ustida ishlash.

Sevimli shoirimiz Rahmatulla Otaqo`ziev Uyg`un 1905-yilda Janubiy qozog`istonning Marki shaxrida tug`ilgan. U dastlab eski maktabda o`qiydi. 1923-yilda Toshkentga o`qishga keladi va dastlab K Marks nomidagi ta'lim-tarbiya texnikumiga kirib (1923-25) o`qiydi. Bilim yurti o`qituvchilari rahbarligida devoriy gazetalarda havaskor shoir sifatida qatnashadi. Bu erda she'r yozishga xavas uyg`onadi va uning kichik she'rlari “Toshqin”devoriy gazetasida bosilib turadi. 1925-yili texnikumni tugatgach, Toshkent qishloq xo`jalik texnikumida til va adabiyot o`qituvchisi bo`lib ishlaydi. U 1927-yilda Samarqanddagi Pedakademiyaning til va adabiyot fakultetiga kirib, uni 1930 yilda tugatadi. Talabalik yillarida ilmga kuchli muhabbat qo`yadi, ayniqsa badiiy adabiyotni zo`r qiziqish va iste'dod bilan o`rganadi. Rahmatulla Otaqo`ziev shu yillarda Uyg`un taxallusi bilan she'rlar yozadiki, ular respublika gazeta va jurnallari sahifalarida tez-tez e'lon qilinib turadi. 1929 yili yosh shoirning dastlabki she'riy to`plami “Bahor sevinchlari” o`quvchilar qo`liga tegadi.

U yoshlar o`rtasida tabiat manzaralarini kuylovchiijodkor sifatida taniladi.

Uyg`unning “Kuz qo`shiqlari” she'ri ham go`zallikka, tabiatga, yurt manzaralariga bag`ishlangan ajoyib asardir. Bu she'rni hosir sinfda ifodali o`qiymiz va mamnun bilan tanishamiz.

O`qituvchining o`zi dastlab “Kuz qo`shiqlari” she'rining 1- bo`limidan to`rt bandi namuna sifatida ifodali o`qib beradi va parchalarning g`oyaviy-estetik mazmuni haqida muhtasar so`zlaydi:

Shoir Uyg`un kuz fasli haqida bir necha badiiy asarlar yaratdi. Masalan: “Kuz qo`shiqlari” (1935), “Kuz shamoliga” (1943), “Kuz shamoliga” (1945), “Mening kuzim” (1946), “Oltin sochdi yo'llarimga kuz” (1945), “Oltin kuz” (1956), “Kuz lavhasi” (1977), “Kuzgi yaproq” kabi katta-kichik she'rlar yozdi. Bu she'rlar bir mavzuda yozilishiga qaramasdan, o`z oldiga qo`ygan maqsadi, xarakteri va badiiy saviyasi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Lekin, shoir bu she'rlarda O`zbekistonning ko`rkam qiyofasini ayniqsa, ona tabiatning kuz fasli va uning behisob saxovati, go`zalligini to`lib-toshib kuylaydi. She'rning asosiy g`oyasi dehqoning fidokorona mexnati tufayli baxtiyor o`lkamizning mo`l-ko`l bog`larga, mevazorlarga aylanganligi va uning o`ziga xos xislatu-fazilatlari, bu pallada osmonimiz musaffo bo`lishi, jilg`alarda suvlar tiniqlashib, zilollashib oqishi, daraxt yaproqlari esa oltin tusga kirishi, paykallarda shakar qovunlarning muattar mayin hidlari erta tong shabadasida har yon urishi badiiy bo`yoqlarda chizilgan.

Kuz faslining manzarasi – shimoldan janubga yo'l olgan qushlar haqida, koinot toji hisoblangan quyoshning olovli ko`zi bilan eru-zaminga jilmayib boqishi, kuzning go`yo sariq ko`ylak kiyib, o`ziga xos lavhada nafis ko`rinishi to`g`risida to`lqinlanib, ifoda etiladi…

Shundan so`ng she'riy matn navbat bilan o`quvchilarga o`qitiladi. Noto`g`ri o`qilgan so`z va iboralar dastlab o`qituvchi tomonidan tuzatiladi va to`g`ri, ongli, ifodali-ohangdor qilib o`qish lozimligi o`quvchilarga tushuntiriladi. O`qituvchi, bir necha o`quvchilar she'rni ifodali o`qib bo`lganlaridan so`ng, sinfdagi barcha o`quvchilar bir necha minut ovoz chiqarmay ichida ohangli o`qishlari va she'rning asosiy mazmunini izohlab berishlarini uqtiradi. O`quvchilar ichda o`qib bo`lganlaridan so`ng she'r ustida ijodiy ish olib boriladi. Bunda o`qituvchi o`quvchilar bilan quyidagicha suxbat uyushtiradi:

O`qituvchi: - qani bolalar, she'rning mazmunini kim aytib beradi?

O`quvchi: - Men aytib beraman.

O`qituvchi: - Juda yaxshi, qani ayt – chi?

O`quvchi: - Men o`qigan parchadan shoir kuz fasli haqida yozadi. qish va bahor kabi kuzning ham yaxshi fasl ekanligini ko`rsatadi. Masalan she'r mana shunday boshlanadi:

Har faslning o`z hislari bor,
Har faslning o`z fazilati.
Kumush qishdan, zumrad bahordan
Qolishmaydi kuzning ziynati…

O`qituvchi: - Bu parchada fasllar haqida nima deyiladi?

O`quvchi: - Har faslnning o`z xislati, har faslning o`z fazilati borligi haqida fikr bildiriladi.

O`qituvchi: - Juda yaxshi, sen "O`z xislati" deganda nimani tushunasan?

O`quvchi: - Har fasl har xil bo`ladida, qishda qor yog`adi, hamma yoq oppoq qor bilan qoplanadi, sovuq bo`ladi, kuzda esa mevalar pishadi paxtalar chaman-chaman bo`lib ochiladi. Bu faslda mevalar ko`p bo`ladi.

O`qituvchi: - Ha barakalla. Shu har xillikni biz nima der ekanmiz, fasllarning o`z xislat va fazilatlari deb ataymiz. Demak kuz ham boshqa fasllardan (ya'ni qish va bahordan qolishmas ekan), shundaymi bolalar?

O`quvchilar: - Shunday.

Shundan so`ng she'rning 2-3 va 4 bandlari ustida suxbat davom ettiriladi.

O`qituvchi: - qani sen ( yaxsgi o`qiydigan bir o`quvchiga aytadi) navbatdagi satrlarni o`qi (o`quvchi o`qiydi)

O`qituvchi: - Endi sen bu bandning mazmunini izohlab berchi.

O`quvchi kuz faslida osmonning tozaligini, suvlarning tiniqligini, yaproqlarning oltinligini tasvirlaydi. Kuzda qovunlarning g`arq pishishini ham aytadi.

O`qituvchi: - To`g`ri shoir bu satrlarda kuz faslining o`ziga xos fazilatlarini to`lqinlanib tasvirlagan

Endi navbatdagi satrlarni kim o`qiydi?

Bir o`quvchi: - Men.

O`qituvchi: - Ifodali o`qiydi. Endi bu parchaning mazmunini aytib bera olasanmi?

O`quvchi: - Ha.

O`qituvchi: - qani bolalar, sizlar ham tinglab o`tiringlar-chi, o`rtog`ingiz parchaning mazmunini qanday so`zlab berar ekan.

O`quvchi: - Bu parchada qushlarning saharda uyg`onib, shimoldan janubga qarab uchib kelishini tasvirlaydi.

O`qituvchi: - To`g`ri aytding, bu misralarda qushlarning uchib kelishidagi tasvirni tabiatning chiroyli manzarasi, ya'ni ko`k bag`riga oq rangli parning ajoyib tasvirlanishini ifodalangan.

O`qituvchi barcha o`quvchilarning mashg`ulotga faolligini oshirish maqsadida topshiriq beradi: - She'rning 1-bo`lim ohirgi bandini ichda o`qinglar, so`ng mazmunini so`zlab berasizlar.

O`quvchilar b u parchani mustaqil ravishda ichda tushunibo`qiydilar va mazmunini quyidagicha sharhlaydilar:

O`quvchi: - “Kuz qo`shiqlarni” she'rining bu parchasida kuz manzarasi chiroyli tasvirlangan. Masalan, quyoshning osmondan olovli ko`zi bilan tabiatga, kuzga egilib qarashi, kuzning esa boshlanish payti hayajonli tasvirlangan.

O`qituvchi: - Barakalla! Dutust tasvirlading. Bola endi bu bandning qisqacha mazmunini daftaringizga ko`chirib yozing.

Bu usulda she'rning boshqa bandlari haqida ham suxbat olib boriladi. Bu mashg`ulotga imkoniyat boricha barcha o`quvchilar jalb qilinadi. Bu bilan dars jarayoni faollashadi va qiziqarli o`tadi.

“Kuz qo`shiqlari” she'ri ustida ishlash jarayonida she'rda uchraga og`ir va tushunilishi qiyin bo`lgan so`zlar va iboralarga izoh beriladi va lug`at bilan ishlanadi. Masalan, bu ish quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

O`qituvchi: - Bolalar, she'rda siz tushunmaydigan so`zlar bormi? Kim aytadi?

O`quvchi: - Men “zumrad”, “sabo” so`zlarini tushunmadim.

Men “barqut” so`ziga

Men “yoqut”, “brilliant” so`zlariga tushunmadim.

O`qituvchi: - She'rda uchragan, tushunilishi qiyin bo`lgan quyidagicha jadvalga solib izohlab beradi.

| Tushunilishi qiyin so`zlar va iboralar | Izoh |
| --- | --- |
| Zumrad, olma | tiniq naqshin olma |

| | |
|---|---|
| Barqut fasl | ko`klam, moviy fasl |
| Sabo | ertalabki tong shabadasi |
| Yoqut olma | shaffof, yaltiroq olma |
| Brilliantday tovlanar | qimmatbaho, tiniq toshday tovlanishi |
| Marvarid | toza va tiniq kamyob tosh |
| shon. | Shonu – shavkat, dovrug`, qadr, ulug`vorlik |

Ikkinchi mashg`ulot:

Darsning mavzusi: “Kuz qo`shiqlari” she'ri matni ustida ishlash

Dars maqsadi: She'rning kompazitsion qurilishi, vazn va qofiyasi badiiy-tasviriy vositalarni bilishga o`rgatish.

O`quvchilarda tabiatni sevish hissini uyg`otish, malakalarni hosil qilish.

Darsning borishi: Suxbat ba ifodali o`qish. She'rdagi badiiy-tasviriy vositalarni topish.

O`qituvchi bu mashg`ulotlarda dastlabki o`tilgan mavzuni takrorlash niyatida bir necha savollar bilan sinf o`quvchilariga murojaat qiladi

Takrorlashni mana bunday reja asosida olib borish mumkin

O`tgan darsda qanday mavzu haqida gikrlashgan edik?

Mavzuning o`ziga xos xususiyatlarini kim aytib beradi

Uyg`uning “Kuz qo`shiqlari” she'ri haqida tushuncha bering.

Shoirning tabiatga bo`lgan munosabati she'rda qanday tasvirlangan?

Siz kuz faslini qanday tasvirlagan bo`lar edingiz?

Ongli va ifodali o`qish deganda nimani tushunasiz?

O`qituvchi “Kuz qo`shiqlari” she'rini o`rganish jarayonida uning ifodali tili, mutakkab so`zlarning ma'nosi, she'rning kompazitsion qurilishi, qofiyalanishi va vazni haqida-ya'ni she'r tuzilishi xususida o`quvchilaga sodda tushunchalar ilk ma'lumot berish samarali natija beradi.

O`qituvchi o`quvchilga dastlab quyidagicha fikr bildiradi:

“Kuz qo`shiqlari” she'ri 6 bo`limdan iboratdir. 1- bo`limda to`kin-sochin kuz faslining go`zal manzarasi chiziladi. 2-bo`limda qishloqlarimizning obod va ma'mur qiyofasi, yashil boyligi va bog`u-rog`lari mevazor maskanlari tarannum etiladi. 3-bo`limning asosiy mazmuni paxtazor dalalar, xalqimizning asosiy boyligi va iftixori hisoblangan “oq oltin” haqidadir. 4-bo`lim esa kuz manzaralari to`g`risida boradi. Bu lirik qasidaning 1-bo`limida fasllarning o`ziga xos qiyofasi hislat va fazilatlari hayajonli ifodalansa 6-bo`limda xotima sifatida shoirning tabiatga munosabati, kayfiyati bayon etilgan. She'r I bandda (4 misra) 2 qofiyali (ohangdosh so`zlar) sistemada yozilgandir, ya'ni ikkinchi misra bilan to`rtinchi misra qofiyalangan. Masalan, “ziynati-fazilati”, “to`laman-bo`laman”, “solma-olma”, otamlashaylik-yashaylik” kabi. She'r asosan to`qqiz hayajonli barmoq vaznida yaratilgan. Masalan:

Boq – qa kir – dim : shaf – to – li u – zum

1 2 3 4 5 6 7 8 9

Shar – bat – lar – ga to` – lib pi – shib – di.

1 2 3 4 5 6 7 8 9

Bar – cha – si – ga ko`z yu – gur – tir – dim.,

1 2 3 4 5 6 7 8 9

Bar – cha – si ham tov – la – nar ku – lar.

1 2 3 4 5 6 7 8 9

Bu she'riy parchalarda misralar teng ichki o`lchovga ega. O`qituvchi shundan so`ng o`quvchilar bilan obrazli ifodalari haqida fikr yuritadi. Shuningdek, bu dars mashg`ulotlarida o`quvchilarning faol ishtiroki matn ustida ijodiy ish olib borishlari, shoir tomondan kuz faslining o`ziga xos fazilatlari she'rda qanday ifodalanishi, asarning poetik tili, badiiy-tasviriy vositalari,shoirning tabiatga bo`lgan munosabati va ichki kechinmalarini aniqlash kabi ishlar amalga oshiriladi. Yangi mavzu haqida o`qituvchining kirish so`zidan keyin"Kuz qo`shiqlari" she'rining badiiy-tasviriy vositalari va shoirning lirik kechinmalari ifodali o`qish jarayonida suxbat usulida o`rganiladi. Masalan: Darsda quyidagi savol-javoblardan foydalanish mumkin:

O`qituvchi: - "Kuz qo`shiqlari" she'rida qanday badiiy-tasviriy vositalar bor?

O`quvchilar: - She'rda o`xshatish, sifatlash kabi vositalar bor. Masalan: mana bu parchalarda ko`rish mumkin. (Kitobdan o`sha parchalarni o`qiydi).

She'rdagi "oltin nashvatilar", "yoqut olmalar", "qizil yulduzlar…", "brilliand tovlanar" singari iboralardagi badiiy-tasviriy vositalar.

"oltin", "yoqut", "qizil" sifatlashga "brilliantday" so`zi o`xshatishga misol bo`ladi.

"Kuz qo`shiqlari" she'rining badiiy-tasviriy vositalarini maxsus jadvalga solib, o`quvchilarga taqdim etsa yanada samarali bo`ladi. Chunkli bu usul matn yuzasidan ko`rgazmali qurol vazifasini ham o`taydi. Matnga bog`lab ijodiy ishlar uyushgtirish paytida, o`quvchilar asabiyot daftariga grafik, jadvallar chizadilar, uni she'rdan olingan quyidagi misollar bilan to`ldiradilar.

"Kuz qo`shiqlari" she'rida badiiy-tasviriy vositalari

| O`xshatishlar | Sifatdoshlar |
|---|---|
| Ko`k yuvilgan, artilgan shisha | Suvlar tiniq, yaproqlar oltin |
| Chir aylanib kumush rangli par | Juda ravshan olovli ko`zi |
| Brilliyantday tovlanar yuzim | Sariq ko`ylak kiyib ko`ringan |
| qizil yuzlaridan sharbat emib | qizil yuzlarimdan bir o`pganing |
| O`rgilaman shaftoli – qizdan… | Armoni yoq, - der yoqut olma. |

She'rning badiiy-tasviriy vositalarini o`tganish, albatta, matnga bog`langan holda olib boriladi. O`quvchilarga she'riy matn birma-bir  ifodali o`qitiladi, bunda o`quvchilar so`zlarning urg`usi, so`z va misralar o`'rtasidagi to`xtam hamda ohangdorlikka alohida e'tibor berishlari lozim.  O`qish jarayonida  misralardagi badiiy-tasviriy vositalarga logik urg`u berib o`qitiladi. Va bu parchalarning mazmunini qayta so`zlab berish  paytida tasviriy vositalar, so`zva iboralarga alohida  diqqatni qaratiladi. She'r matnidagi adabiy vositalar aniqlanib, tahlil qilish ishlari tugallangach,  mashg`ulot mavzusini mustahkamlash niyatida darslik-xrestomatiyada berilga savol vatopshiriqlardan goydalanish mumkin.  Bundan tashqari o`qituvchi quyidagi  reja asosida o`quvchilar bilan   suxbat o`tkazishi maqsadga muvofiqdir.

She'r necha bo`limdan iborat?  Har qaysi bo`limni qisqacha so`zlab bering.

She'rda kuz fasli qanday tasvirlanadi? Shoirning kuz fasliga bo`lgan munosabati, kayfiyati, qaysi misralarda tasvirlangan?

Quyidagi she'riy parchaning mazmunini izohlang:

Yilimizning salmoqdor ishi
To`rt faslga tekis bo`linar
qish tayyorlar, Bahor ekadi,
Kuz yig`adi, Yoz tarbiyalanar.

"Kuz qo`shiqlari" sherining tasviriy vositalari haqida gapiring.

She'r sizlarda qanday taassurot qoldirdi? O`zingiz yashayotgan kolxoz dalalari, mahalla, maktab er uchastkasida  kuzning kelishi haqida gapirib bering.

O`qituvchi mashg`ulotni mustahkamlab, xulosalar ekan, "Kuz qo`shiqlari"  she'rining tarbiyaviy ahamiyati haqida shuningdek,  tabiatni sevish va vatanparvarlikka ham to`xtalishi zarur.

## XULOSALAR

BMI natijasida quyidagi xulosaga keldik:

1. Boshlang`ich sinflarning eng muhim vazifalaridan biri bo`lajak kadrlarni tayyorlashda, avvalambor, uning kasbiy tayyorgarligini hisobga olish va maktab o`quvchilarini pedagoglik kasbiga tayyorlash sohasida maktablar, litseylar, kasb-hunar kollejlari bilan mustahkam aloqa bog`lashlari zarur. Chunki kasbiy mahoratning shakllanishida uzviylik, tizimlilik va izchillikning o`rni katta.

2. Bo`lajak o`qituvchilarni ta'lim jarayoniga boshlang`ich sinf o`quvchilarida adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida boshlang`ich siflarda ta'lim jarayonini ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishiga e'tibor qaratish zarur. Buning uchun, avvalo, maktab, pedagogika kolleji o`qituvchilarini tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish muhimdir.

3. Pedagogika turkumidagi fanlarni o`qitishning mazmunini bo`lajak o`qituvchilarni ta'lim jarayonini ilg`or pedagogik texnologiya asosida uyushtirishga tayyorlashga qaratilishi zarur. Pedagogika fanlari mazmunini qayta ko`rib chiqish va uni zamonaviylashtirish hozirgi kun zaruriyati. Shu jihatdan qaraganda biz tavsiya etgan pedagogika fanlarini o`qitish tizimi yaxshi natija beradi, deb hisoblaymiz.

5. Bo`lajak o`qituvchilarni nazariy jihatdan tayyorlashni amaliy tayyorgarlik bilan mustahkam aloqada yo`lga qo`yish zarur. Chunki amaliyot ularni pedagogik faoliyatga qanchalik tayyorligini ko`rsatuvchi mezondir. Shuning uchun ham bo`lajak kadrlarni boshlarg`ich sinflarga qabul qilingandan boshlab amaliy tayyorlashga e'tibor qaratish, uzluksiz amaliyotni tashkil etish, amaliy tayyorgarlikka ko`proq vaqt ajratish yaxshi samara beradi.

Bo`lajak kadrlarni ta'limga texnologik yondashuvga tayyorlashda biz yuqorida tavsiya etgan ish tizimidan foydalansa kutilgan samaraga erishish mumkin, deb hisoblaymiz.

## ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Abrorov A. Uyg`un bolalar adabiyoti va zamonaviylik. Toshkent. 1984.
2. Akbarov A Xalq shoiri Sharq yulduzi 1975.
3. Ashrapova T. Xotamov O`qish kitobi. 1993.
4. Axmedjonovna K Uyg`un lirik shoir. 1979.
5. Bolalar adabiyoti. To`ldirilgan va qayta ishlangan nashr. Toshkent 1993.
6. “Boshlang`ich ta'lim” jurnali 1992 5-6 sonlari.
7. Jumaboev N Bolalar adabiyoti. Toshkent. 1995.
8. Zohidov B She'riyatimiz ko`rki. 1995.
9. Mamajonov S. Uyg`un. 1965.
10. Orifiy Sh. Maktabda Uyg`un ijodini o`rganish. 1990.
11. Pirnazarov M. Sakkiz yillik maktablarda Uyg`un ijodini o`rganish. 1967.
12. Solieva M Uyg`un poemasi. 1954
13. Smirnova V Uyg`un lirikasi. “Sharq yulduzi” 1975 5-son.
14. Syumova M. Bolalar adabiyoti 1973.
15. Uyg`un. Hadya. 1973
16. Shermuhammedov O`zbek bolalar adabiyoti 1976
17. Shukurov N uslublar va janrlar. 1973
18. Yusupov M San'atkorning ikki jabhasi. 1981
19. Qayumov. Zamondoshlar. 1971
20. Qoraev. Obrazli va mantiqiy tafakkur jilosi.
21. Qoraev. Shoirning bir yili 1982
22. Qoraev. Shoir qalbi doim navqiron 1983
23. Qoraev. Uyg`un mahorati. 1984.

IV bosqich talabasi Mamatqulova Gulnigorning 5141600 – Boshlang`ich ta'lim sport va tarbiyaviy ish yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun **«Boshlang'ich ta'lim va tarbiyasida o'quvchilarda filologik tahlil malakasini shakllantirish»** mavzusida yozgan BMIga ilmiy rahbarning

**XULOSASI**

O`zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish, shuningdek, mustaqil fikr egasi, erkin va ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ta'limiy islohotlarning ikkinchi - sifat bosqichi kechayotgan mavjud sharoitda O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risida»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da belgilangan vazifalarning to`laqonli amalga oshirishga erishish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariga tayangan holda dastur mazmuniga tegishli o`zgartirishlarni kiritish yo`lida amaliy harakatlar olib borilmoqda.

Talaba Mamatqulova Gulnigorning MBI ham aynan boshlang`ich sinf o`quvchilari badiiy asar ustida ishlash jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlari va usullarini aniqlashdan iborat. Unda boshlang`ich sinf o`quvchilarida adabiy tahlil malakasini shakllantirish va ta'lim mazmunini uyg`unlashtirish imkoniyatlarini ochib bergan, shuningdek, boshlang`ich sinflarda Uyg`unning adabiy-badiiy asarlarini tahlil qilishning filologik-pedagogik talqin qilgan.

Ishning boblari va qo`yilgan masalalar bir-biri bilan o`zaro bog`langan, tanlangan mavzu mohiyatini to`liq qamrab oladi. Ishdagi ayrim kuzatishlar va xulosalar e'tiborga molik. MBIni to`liq yakunlangan deb hisoblayman va uni YaDAK a'zolari muhokamasi uchun himoyaga tavsiya etaman.

**Ilmiy rahbar:** **prof. Jumanazarov U.A.**

XODIMLAR BO'LIMI

IV bosqich talabasi Mamatqulova Gulnigorning 5141600 – Boshlang`ich ta'lim sport va tarbiyaviy ish yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun **«Boshlang'ich ta'lim va tarbiyasida o'quvchilarda filologik tahlil malakasini shakllantirish»** mavzusida yozgan BMIga

## TAQRIZ

Boshlang`ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish metodikasida kichik yoshdagi o`quvchilarning badiiy asarni idrok qilishidagi psixologik xususiyatlar hisobga olinadi. Psixolog olimlarning tekshirishlaridan ma'lum bo`lishicha, asarni idrok qilishga , bilim olishga xizmat qiladigan komponentlar bilan birga , uni emostional-estetik his etish ham kiradi.Badiiy asarni yaxshi idrok etish uchun uni tushunishning o`zigina etarli emas. Asarni idrok etish murakkab jarayon bo`lib, asarga unda tasvirlangan voqelikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o`z ichiga oladi.

Talaba Mamatqulova Gulnigorning MBI ham aynan boshlang`ich sinf o`quvchilari badiiy asar ustida ishlash jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlari va usullarini aniqlashdan iborat. Unda boshlang`ich sinf o`quvchilarida adabiy tahlil malakasini shakllantirish va ta'lim mazmunini uyg`unlashtirish imkoniyatlarini ochib bergan, shuningdek, boshlang`ich sinflarda Uyg`unning adabiy-badiiy asarlarini tahlil qilishning filologik-pedagogik talqin qilgan.

Ishning boblari va qo`yilgan masalalar bir-biri bilan o`zaro bog`langan, tanlangan mavzu mohiyatini to`liq qamrab oladi. Ishdagi ayrim kuzatishlar va xulosalar e'tiborga molik. MBIni to`liq yakunlangan deb hisoblayman va uni YaDAK a'zolari muhokamasi uchun himoyaga tavsiya etaman.

**Taqrizchi:** 15-maktab direktori
Usmonov U.
Sinf rahbari:

IV bosqich talabasi Mamatqulova Gulnigorning 5141600 – Boshlang`ich ta'lim sport va tarbiyaviy ish yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun **«Boshlang'ich ta'lim va tarbiyasida o'quvchilarda filologik tahlil malakasini shakllantirish»** mavzusida yozgan BMIga

**TAQRIZ**

O`zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish, shuningdek, mustaqil fikr egasi, erkin va ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ta'limiy islohotlarning ikkinchi - sifat bosqichi kechayotgan mavjud sharoitda O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risida»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da belgilangan vazifalarning to`laqonli amalga oshirishga erishish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariga tayangan holda dastur mazmuniga tegishli o`zgartirishlarni kiritish yo`lida amaliy harakatlar olib borilmoqda.

Talaba Mamatqulova Gulnigorning MBI ham aynan boshlang`ich sinf o`quvchilari badiiy asar ustida ishlash jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlari va usullarini aniqlashdan iborat. Unda boshlang`ich sinf o`quvchilarida adabiy tahlil malakasini shakllantirish va ta'lim mazmunini uyg`unlashtirish imkoniyatlarini ochib bergan, shuningdek, boshlang`ich sinflarda Uyg`unning adabiy-badiiy asarlarini tahlil qilishning filologik-pedagogik talqin qilgan.

Ishning boblari va qo`yilgan masalalar bir-biri bilan o`zaro bog`langan, tanlangan mavzu mohiyatini to`liq qamrab oladi. Ishdagi ayrim kuzatishlar va xulosalar e'tiborga molik. MBIni to`liq yakunlangan deb hisoblayman va uni YaDAK a'zolari muhokamasi uchun himoyaga tavsiya etaman.

**Taqrizchi:** dots. Jumanazarova G.U.

XODIMLAR BO'LIMI